

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI
MOLIYAVIY MENEJMENT FAKULTETI
“MENEJMENT VA MARKETING” KAFEDRASI**

**SULTONOV BAHODIRBEK ALIBEK O`G`LI
«TIJORAT BANKLARI FAOLIYATIDA KREDIT SIYOSATI VA
XIZMATLARNI BOSHQARISH»**

«HIMOYAGA RUXSAT ETILDI»

«Moliyaviy menejment» fakulteti dekani i.f.n.,
dotsent
Astanakulov Olim Tashtemirovich
« ____ » _____ 2015

«Menejment va marketing» kafedrasi mudiri
i.f.n.
Jumayev Otabek Tolibovich
« ____ » _____ 2015

Bitiruvchi :

5230200 -“ Menejment”- ta'lim yo'nalishi

4 -kurs talabasi

Sultonov Bahodirbek Alibek o`g`li

Ilmiy rahbar:
Absamatovna

i.f.n. Xamdamova Gavxar

TOSHKENT – 2015

MUNDARIJA

KIRISH	3
I BOB. TIJORAT BANKLARI FAOLIYATIDA KREDIT SIYOSATI VA XIZMATLARNI BOSHQARISHNING NAZARIY ASOSLARI	6
1.1. Tijorat banklarida kredit siyosatining ahamiyati va uni bankni boshqarishdagi roli.....	6
1.2. Tijorat banklarining kredit portfelini shakllantirish mezonlari.....	15
1.3. Xorijiy mamlakatlar tijorat banklarning kredit siyosati va uning bank kredit portfelini boshqarishdagi o'ziga xos xususiyatlari.....	21
II BOB. TIJORAT BANKLARI KREDIT PORTFELINING AMALDAGI HOLATI VA UNING TAHLILI	27
2.1. “O’zsanoatqurilishbank” OATB ning tashkiliy-iqtisodiy tavsifi va mijozlar bilan ishlash siyosati.....	27
2.2. “O’zsanoatqurilishbank” OATB kredit siyosatining mezonlari va uning tahlili.....	32
III BOB. IQTISODIYOTNI MODERNIZATSIYALASH SHA-ROITIDA O’ZBEKISTON RESPUBLIKASI TIJORAT BANKLARINING KREDIT SIYOSATINI BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISH YO’LLARI ...	38
3.1. Tijorat banklarida kredit portfelini samarali boshqarish usullarini takomillashtirish.....	38
3.2. O’zbekiston respublikasi tijorat banklarida kreditlash amaliyotining rivojlanish tendentsiyalari.....	44
3.3. O’zbekiston respublikasi tijorat banklari kredit siyosatini boshqarishni takomillashtirish istiqbollari.....	56
XULOSA	60
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR	62

KIRISH

Bitiruv malakaviy ish mavzusining dolzarbligi. Iqtisodiyotning hozirgi rivojlanish bosqichi iqtisodiy infratuzilmaning barcha tarmoqlari kabi bank tizimida ham boshqaruv jarayonlarini zamonaviy talablar asosida takomillashtirishga bo'lgan talabni yanada kuchaytirmoqda. Iqtisodiyotning boshqa tarmoqlaridagi kabi bank faoliyati ham mavjud sarmoyalarni eng kam risk asosida joylashtirib, yuqori daromad olish imkoniyatiga ega bo'lishni ko'zda tutadi. Yuqori daromad olish – banklar tomonidan ajratilayotgan kreditlarning risklilik darajasini oshiradi. Bundan tashqari, banklar asosan chetdan jalb qilingan resurslar hisobiga aktiv amaliyotlar olib borishi, qo'yilmalar sifati bo'yicha majburiyat darajasini yanada yuqori bo'lishini taqozo etadi. Tijorat banklari yuqori daromad olish istagi bilan birgalikda turli hil risklar mavjud sharoitida faoliyat ko'rsatishi ularning oldiga samarali kredit siyosatini shakllantirish vazifasini kompleks ravishda o'rganish hamda extiyot choralarni oldindan belgilash vazifasini yuklaydi. Bu borada mamlakatimiz Prezidenti I.A.Karimov ta'kidlaginidek: “Banklar tomonidan faqat ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish va texnologik yangilash dasturlarini moliyalashtirishga yo'naltirilgan kreditlar hajmi 2013-yilga nisbatan 1,2 barobar, aylanma mablag'larni to'ldirish uchun ajratilgan kreditlar esa 1,3-martadan ziyod oshdi”.¹

Iqtisodiy adabiyotlarda bank faoliyatining samaradorligi, ularning moliyaviy barqarorlik ta'minlashda kredit portfeli chuqur o'rganib chiqilmaganligi, kredit portfelini shakllantirish doirasida moliyaviy barqarorlikni ta'minlashda kredit siyosati muammolarining respublika tijorat banklari faoliyati misolida kam tadqiq qilinganligi tanlangan mavzuning dolzarbligini belgilaydi.

¹ 2015-yilda iqtisodiyotimizda tub tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish, modernizatsiya va diversifikatsiya jarayonlarini izchil davom ettirish hisobidan xususiy mulk va xususiy tadbirkorlikka keng yo'l ochib berish – ustuvor vazifamizdir. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning mamlakatimizni 2014-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2015-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi. Xalq so'zi. 2015 yil 17 yanvar.

Bitiruv malakaviy ishning ahamiyati. BMI natijalari, xulosa va takliflar iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida tijorat banklari faoliyatida kredit siyosati va xizmatlarni boshqarishning nazariy va amaliy bilimlar doirasi o'rganiladi. BMI ning amaliy ahamiyati iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida tijorat banklari faoliyatida kredit siyosati va xizmatlarini boshqarishni takomillashtirish bo'yicha amaliy chora tadbirlar ishlab chiqishda foydalanish mumkin.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Tijorat banklari faoliyatida kredit siyosati va xizmatlarni boshqarishning takomillashtirish muammolariga qaratilgan bir qator nazariy-amaliy izlanishlar xorijiy olimlari tomonidan o'rganilgan. Ular orasida A.V.Astaxov, N.T.Balabanov, O.I.Lavrushin, I.V.Larionova, R.G. Olxova, A.I.Olshanniy, I.O.Spitsin, singari iqtisodchi olimlar ajralib turadilar. Shuningdek, mamlakatimizda kredit portfelini shakllantirish va kredit siyosatiga oid masalalar milliy iqtisodchi olim va mutaxassislar Abdullayev Yo.A., Abdullayeva Sh.Z., Boboqulov T.I., Iminov O.K., Nazarova F.X., Mullajonov F.M., Nurmurodov M.B., Norqobilov S.X., Olimjonov O.O., Toshmurodov Sh.M., Karimov N.F., Qodirov A.Q., Qoraliev T.M., Xolmaxmadov Z.A. va boshqalar tomonidan tadqiq qilingan.

Bitiruv malakaviy ishining maqsadi. Bank faoliyatining barqarorligi va raqobatbardoshligini ta'minlashga yo'naltirilgan kredit siyosati va xizmatlarni boshqarishning takomillashtirish qaratilgan ilmiy va amaliy holatlarni o'rganishdan iborat.

Bitiruv malakaviy ishining vazifasi. BMI maqsadiga muvofiq tadqiqotning vazifalari etib quyidagilar belgilangan:

-tijorat banklarida kredit siyosatining ahamiyati va uni bankni boshqarishdagi rolini asoslash;

-tijorat banklarining kredit portfelini shakllantirish mezonlariga tavsif berish;

-xorijiy mamlakatlar tijorat banklarning kredit siyosati va uning bank kredit portfelini boshqarishdagi o'ziga xos xususiyatlarini o'rganib, tahlil etish;

-“O’zsanoatqurilishbank” OATB ning tashkiliy-iqtisodiy tavsifi va mijozlar bilan ishlash siyosati ko’rsatkichlarining tahlili;

-“O’zsanoatqurilishbank” OATB kredit siyosatining mezonlari va uning tahlili;

-tijorat banklarida kredit portfelini samarali boshqarish usullarini takomillashtirishni asoslab berish;

-O’zbekiston respublikasi tijorat banklarida kreditlash amaliyotining rivojlanish tendentsiyalarini yoritib berish;

-O’zbekiston respublikasi tijorat banklari kredit siyosatini boshqarishni takomillashtirish istiqbollari belgilash.

Bitiruv malakaviy ishining obekti va predmeti. “O’zsanoatqurilishbank” OATB tadqiqot ob’ekti hisoblanadi. “O’zsanoatqurilishbank” OATB kredit siyosati va xizmatlarni boshqarish jarayoni tadqiqot predmeti hisoblanadi.

BMI tarkibining qisqacha tavsifi. Bitiruv malakaviy ishining tuzilishi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati va ilovalardan iborat.

I BOB. TIJORAT BANKLARI FAOLIYATIDA KREDIT SIYOSATI VA XIZMATLARNI BOSHQARISHNING NAZARIY ASOSLARI

1.1. Tijorat banklarida kredit siyosatining ahamiyati va uni bankni boshqarishdagi roli

Tijorat banklari tomonidan iqtisodiyotning turli tarmoqlariga ajratilayotgan kreditlar, albatta, shu tarmoqlarning rivojlanishiga va bu orqali iqtisodiy o'sishni ta'minlashda muhim amaliy ahamiyat kasb etadi. Kreditlashni tashkil etish kredit munosabatlarining ikki sub'ekti - bank va qarz oluvchining o'zaro majburiyatlari hamda manfaatlarini uyg'unlashtirishni nazarda tutadi. Kreditor sifatida banklarning olib boradigan faoliyati ular uchun me'yoriy bo'lgan hujjat kredit siyosatida o'z aksini topadi. Tijorat banklari kredit siyosatini mustaqil tuzadilar. Har bir bank siyosiy, iqtisodiy tashkiliy va boshqa jihatlarni hisobga olgan holda, o'z kredit siyosatini shakllantirishi bank kreditlash faoliyatining muhim tomoni hisoblanadi.

Tijorat banking kredit siyosati kreditlarni boshqarishning asosi hisoblanadi. Mamlakatimiz Prezidenti I.A.Karimov ta'kidlab o'tganidek, "Banklarning kredit portfeli tarkibi sifat jihatidan tubdan o'zgarmoqda. Agar 2000-yilda kredit portfelining 54 foizi tashqi qarzlar hisobidan shakllantirilgan bo'lsa, 2011-yilda uning 85,3 foizi ichki manbalar - yuridik va jismoniy shaxslar depozitlari hisobidan shakllantirildi. Bu esa, o'z navbatida, iqtisodiyotimiz tarmoqlariga investitsiya kiritish va shuning hisobidan taraqqiyotimizni ta'minlashda ichki imkoniyatlarimiz tobora ortib borayotganining dalilidir".²

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banking 2000 yil 2 martdagi "Tijorat banklari kredit siyosatiga qo'yiladigan talablar to'g'risida"gi Nizomga asosan banking kredit siyosatiga quyidagicha ta'rif beriladi:

"Bankning kredit siyosati – kreditlash jarayonida yuzaga keluvchi risklarni boshqarishda bank rahbariyati tomonidan qabul qilinadigan choralar va uslublarni belgilovchi hamda bank rahbariyati va xodimlari kreditlar portfelini

² I.A.Karimov. 2012-yil. Vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko'taradigan yil bo'ladi. T.: "O'zbekiston". 2012 y . 55 b.

samarali boshqarishga doir ko'rsatmalar bilan ta'minlovchi hujjatdir. Kredit siyosati bankning kredit faoliyati maqsadlarini aniq ko'rsatishi va aniqlab berishi shart”³.

Kredit siyosatida maqsad va strategiyasi, vakolatlar darajasi va mas'uliyatni taqsimlash, shuningdek, kredit turlari, kontsentratsiyasi, qarzdorlarga doir moliyaviy axborotlar to'plami, garov ta'minotiga va kredit monitoringiga nisbatan qo'yiladigan talablar, kreditlar bo'yicha foiz stavkalarini belgilash, bank bilan bog'liq shaxslar bilan bajariladigan operatsiyalar, balansdan tashqari moddalar, kredit portfelini audit qilish va korporativ hisobotlar yoritilishi lozim.


Kredit siyosatining yo'nalishlarida esa, strategik masalalar, ya'ni berilayotgan kreditlarning hajmi va shakli, qisqa va uzoq muddatli kreditlar o'rtasidagi nisbat va hamda protseduralarga oid moliyaviy axborotlarni tahlil etish jarayoni, kredit portfeli hamda mablag'larning qaytarilishini ta'minlash bo'yicha chora-tadbirlar aks ettirilishi maqsadga muvofiqdir.

Bugungi kunda respublikamiz iqtisodiyotining barqaror rivojlanishi avvalambor, unda amalga oshirilayotgan islohotlar natijalari bilan chambarchas bog'liq. Bank tizimidagi islohotlarni yanada chuqurlashtirish, iqtisodiy sohadagi ustuvor vazifalarning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Respublikamiz bank faoliyati, tijorat banklarining rivojlanishi, ularning erkinlashuvi juda murakkab muhitda, ya'ni iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy raqobat muhitida shakllanmoqda. Bank faoliyatini erkinlashtirish sharoitida banklararo raqobatning kuchayishi va uning takomillashuvi zaruriyatga aylanib bormoqda.

Bank tizimiga xususiy kapital kirib keldi. O'zbekiston respublikasi Prezidenti tomonidan 1997 yilda qabul qilingan “Xususiy tijorat banklarini tashkil qilishni rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi Farmoni bilan bog'liq bo'lib, unda xususiy bank tashkil etilishiga qator imtiyoz va rag'batlantiruvchi omillar ko'zda tutilgan edi. Keyinchalik, chet el sarmoyasi ishtirokidagi banklar soni ko'paydi, chet el banklari vakolatxonalari ochildi.

³ Львов Ю.И. , Букато В.И. Банки и банковские операции в России / Под ред. М.Х. Лapidуса. – М.: Финансы и статистика, 2012.-С - 233 .

Shu bilan birgalikda, banklarda korporativ boshqarish tizimini mustahkamlash, bank boshqaruvida aktsiyadorlar va bank kengashi rolini oshirilishi muhim ahamiyatga ega bo'ldi, bank ichki audit xizmati sifat jihatdan yaxshilandi. Respublikamizda bank kredit faoliyatida mavjud risklarni aniqlash, kredit portfelini boshqarish va risklarning bank kredit portfeliga salbiy ta'sirini kamaytirish borasida aniq uslubiyot yoki uslubiy manbalar etarli darajada ishlab chiqilmagan. Shu sababdan, O'zbekiston bank ishi amaliyotida kredit risklarini kompleks o'rganish, tahlil etish va ularning kredit portfeliga salbiy ta'sirini kamaytirish masalalarini o'rganish hozirgi kunda ham muhim ahamiyat kasb etmoqda.



1-rasm. Bank kredit siyosati asosiy tamoyillari.⁴

Tijorat banklari tomonidan kredit operatsiyalarini to'la-to'kis olib borish ular tomonidan kredit siyosatining qay darajada tashkil etilganiga bog'liq. Har bir bank siyosiy, iqtisodiy, tashkiliy va boshqa jihatlarini hisobga olgan holda, o'z kredit siyosatini shakllantirishi bank kreditlashining muhim jihati hisoblanadi. Bu kreditlarni boshqarishning asosi hisoblanadi.

⁴ Банковский менеджмент: учебник / кол. авторов; под ред. д-ра экон. наук, проф. О.И. Лаврушина. – 3 – е изд., перераб. и доп. – М.: КНОРУС, 2010. -С-60.

Oqilona kredit siyosati bank aktivlari sifatiga ta'sir qiluvchi asosiy omillardan hisoblanadi. Shu bois, tijorat banklar kredit siyosatini ishlab chiqishda mintaqaviy bo'limlarning mavqe'i, mavjud filiallar soni va mintaqadagi iqtisodiy faoliyati joylashuvi, kredit mablag'lari manbalarining yuqoriligi, bankning joylardagi riskining darajasi, muddatlar bo'yicha majburiyatlar va aktivlar tuzilmasini hisobga olishi kerak. Shuningdek, kredit siyosatini ishlab chiqishda bank raxbariyati tomonidan qabul qilingan asosiy tamoyillarga alohida e'tibor qaratishlari lozim.

Kredit siyosatining mazmunini chuqurroq o'rganish uchun uning nimalardan tashkil topganini bilishimiz lozim.

Banklarning kredit siyosati quyidagi elementlarni o'z ichiga oladi:

-maqsadni aniqlash va natijada bank kredit portfelini shakllantirish (turi, muddati, hajmi va ta'minot sifati);

-kreditlarni berish, yuritish, qoplash jarayonlarida bank bo'limlari vakolatlari;

-kerakli hujjatlar ro'yhati;

-kredit ta'minotini qabul qilish, baholash va sotishning asosiy qoidalari;

-kredit operatsiyalari chegaralari (limiti);

-kreditlar bo'yicha foiz stavkalarini o'rnatish siyosati;

-kredit arizalarini baholash uslublari;

-muammoli kreditlarni istiqbolini belgilash va qiyin holatdan chiqish yo'llarini tahlil qilish.

Bank mablag'larini mavjudligi va ularning tashkiliy tuzilishi bank kredit siyosatini olib borilishini belgilaydi. Kredit siyosati bank likvidligiga bevosita bog'liqdir.

Bank kredit siyosati bank xizmatchilarining kreditlarni rasmiylashtirish, berish va boshqarish borasidagi o'z faoliyatlarida amal qiladigan standartlari, miqdori va jarayonlarini aniqlab beradi. Bank kredit siyosati odatda yozma ravishda, qat'iy belgilangan hujjat tarzida rasmiylashtiriladi.

Bank kredit siyosati – bu tijorat banking kredit berish madaniyatini anglatadi. Bank kredit siyosatini turli bosqichlarga va omillarga bog'liq tomonlari mavjud.

1-jadval.

Bank kredit siyosatini belgilovchi omillar.⁵

1	Makroiqtisodiy omillar	-Mamlakat iqtisodiyotining umumiy holati; -Markaziy bank pul-kredit siyosati; -Xukumatning moliyaviy siyosati.
2	Regional (sho'ba) va tarmoq omili	-Hudud va tarmoqdagi iqtisodiy holati (bank bo'limiga tegishli); -Mijozlar tuzilmasi, ularning kreditga bo'lgan talabi; -Raqobatchi banklarning mavjudligi.
3	Bank ichidagi omillar	-Bankning o'z mablag'lari hajmi ; -Passivlar tuzilishi; -Bank personalni tajribasi va qobiliyati

Tijorat banking optimal kredit siyosatini xarajatlarni qoplashga imkon beruvchi va ma'lum darajada foyda keltiruvchi oqilona chora-tadbirlar aniq belgilab qo'yilgan ichki me'yoriy hujjat sifatida tavsiflash mumkin. Tijorat banklari tomonidan kredit siyosatini to'g'ri tashkil etish muhim ahamiyat kasb etadi, chunki, kredit - bank operatsiyalari ichida asosiy o'rinni egallaydi va daromadlarning asosiy qismini bank kreditidan keladigan foiz daromadlari tashkil etadi.

Bank kredit siyosatini to'g'ri tashkil etish, kredit riskini kamaytirishga xizmat qiladi. O'z navbatida esa, bank kredit portfelini boshqarish tartibi bank kredit siyosati orqali belgilanadi.

Tijorat banklari ishlab chiqayotgan kredit siyosatlarida quyidagilarga alohida ahamiyat berishlari lozim:

-kreditlarning qaytmasligi xatarini minimallashtirish uchun etarlicha likvidli garov bilan ta'minlanishiga va maqsadli ishlatilishini nazorat qilish bo'yicha talablar ishlab chiqishi;

⁵ I.R.Toymuxamedov. "Bank ishi". T.: O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti. 2005. 66 bet.

-xavfsiz va ishonchli faoliyat andozalariga muvofiq kreditlar bo'yicha ta'minotga olingan manbalar bank tomonidan kreditni qoplashning asosiy manbai deb hisoblanmasligi kerak. Ta'minot manbasi kredit to'lashning ikkilamchi manbai sifatida qaralishi;

-kredit bo'yicha taqdim etilayotgan ta'minotni tahlil qilishda ta'minotning likvidligini e'tiborga olishi kerak. Shunga muvofiq ravishda kreditning asosiy qarz summalari va foizlarning qaytarilishini hisobga olgan holda ta'minotni kelajakda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan iqtisodiy, siyosiy va moliyaviy omillarning qo'yilayotgan ta'minot summasiga o'tkazishi mumkin bo'lgan ta'sirini e'tiborga olgan holda uning real qiymatini baholashlari;

-kredit siyosatida qo'yilgan talablarni to'g'ri va o'z vaqtida amalga oshirish, uni doimiy ravishda muvofiqlashtirib borishi;

-kredit mablag'lari kredit garov bilan etarlicha ta'minlanmaguncha berilmasligi kerak. Kreditni ta'minlash uchun qo'yiladigan garov murakkab bo'lgan hollar qo'shimcha e'tibor va bank yuridik xizmati tomonidan tasdiqlanishini talab etishi;

-har bir bank o'z kredit portfeli sifatini muntazam tahlil qilib borishi va vaziyat taqozo etganda, kredit portfeli sifatini yaxshilash borasida ma'lum chora-tadbirlar ishlab chiqishi;

-bank o'z kredit portfelini muntazam diversifikatsiya qilib borishilari lozim.

2-jadval.

Sinflar bo'yicha kreditga layoqatlilikning asosiy ko'rsatkichlari talablari.⁶

№	Nomlanishi	1-sinf	2-sinf	3-sinf
1	Qoplash koeffitsienti	2 > ortiq	2 > ga > 1	1 > ga > 0,5
2	Likvidlik koeffitsienti	1,5 ortiq	1,5 > ga > 1	1,0 > ga > 0,5
3	Muxtoriyat koeffitsienti	ortiq > 60%	60% > ga > 30%	30% > ga > 15%

⁶ "O'zsanotqurilishbank" OATB ning umumiy qoidalari 2012 y.

Jadvalga asosan tijorat banklari tomonidan mijozning kreditga layoqatlilik qobiliyati darajasi aniqlanadi.

1- sinfga mansub korxonalar umumiy tartibda kreditlanadilar.

Ularga nisbatan ba'zi imtiyozlar berilishi mumkin, ya'ni ishonchli kredit berish, qonunda va bankning ichki kredit siyosatida ko'rsatib o'tilgan imtiyozlar qo'llanilish mumkin;

2-sinfga mansub korxonalar ham umumiy tartibda, qo'shimcha ijobiy ko'rsatkichlar mavjud bo'lgan taqdirda ba'zi imtiyozlar qo'llangan xolda kreditlanishi mumkii (ishonchli kreditlar berish bundan mustasno);

3-sinfga mansub korxonalar kreditga layoqatsiz deb hisoblanib, 13 ularni kreditlash fakat yuqori foiz stavkalarini qo'llagan holda, yuqori tashkilot kafolati yoki yuqori likdvili mulkni garovga qo'yish yo'li bilan amalga oshirilishi mumkin;

4-sinfga mansub korxonalar kreditlanmaydi. Lekin xukumatning alohida qarorlariga ko'ra istisnolar qo'llanishi mumkin.

Tijorat banklari iqtisodiy faoliyatini rivojlantirishi sharoitida, kredit siyosati va kredit risklarini samarali boshqarishga bo'lgan zaruriyati, boshqa tijorat banklari bilan raqobat mezonini hisobga olishlari kerak. Mazkur siyosat va kredit berish jarayonlari ssuda kapitali kon'yukturasida talab va takliflarining o'zgarishlariga barqarorligini kafolatlash maqsadida kredit siyosatini amalga oshirilishini bank Kengashi doimiy nazorat o'rnatishi zarur.

Tijorat banklarining kredit siyosatida mas'uliyatlar taqsimoti dolzarb muammolardan sanaladi. Bank kengashi kredit risklari strategiyasini ishlab chiqish, amalga oshirish va monitoringi uchun mas'uldir. Shu bois, Kengash kredit siyosatning bajarilish darajasi va kreditlash bilan bog'liq amallar orqali strategik maqsadlariga erishishi natijalariga ko'ra bank ijro organi rahbariyatining faoliyatini baholaydi.

Bank Kengashi kredit siyosatiga doir javobgarliklarni quyidagi omillarda bayon etishi mumkin:

- kreditni tayyorlash;
- kreditni tasdiqlash jarayoni;
- kredit va portfelni boshqarish va monitoringini olib borish;

Har yillik inventarizatsiya, tahlillar va jazo choralari.

Iqtisodiy adabiyotlardan bizga ma'lumki, kredit siyosatiga ta'sir etuvchi omillar bo'lib, kredit risklari eng asosiy o'rinni egallaydi.

Shuningdek, kreditni asoslash jarayonlarida quyidagi omillarni e'tiborga olishi lozim:

1-Bank kredit berishning aniq belgilangan va asoslangan mezonlari doirasida o'z faoliyatini olib borishi kerak. Bu mezonlar bank mo'ljallayotgan bozorni aniq ko'rsatish, qarz oluvchi yoki unga raqobatchi sherik to'g'risidagi to'liq axborot, shuningdek kreditning maqsadi va strukturasi hamda uni qoplash manbalarini aniq belgilashni o'z ichiga oladi.

2-Bank qarz oluvchilar va raqobatchi sheriklar, shuningdek o'zaro hamkorlik qiluvchi raqobatchi sheriklar guruhi darajasida umumiy kredit limitlarini belgilashi zarur, bu ham bank va tijorat kitoblarida, ham balans va balansdan tashqari hisobotlarda turli xildagi risklarning jamini qiyoslash ahamiyatiga ko'ra aks ettirilishi kerak.

3-Bank yangi kreditlarni tasdiqlash, shuningdek mavjud kreditlarga tuzatishlar kiritish, yangilash va qayta moliyalashning aniq belgilangan tizimiga ega bo'lishi kerak.

Kredit portfelini boshqarishdagi omillarda:

1-Bankda turli kredit portfellarini boshqarish tizimi mavjud bo'lishi kerak.

2-Bankda alohida kreditlarning holatini monitoring qilish tizimi mavjud bo'lishi kerak, bu tizim o'z ichiga shu jumladan zahiraning o'zi va zahiraga ajratmalar ajratishning mosligini oladi.

3-Bank kredit risklarini boshqarishda kreditlar uchun ichki reyting tizimini ishlab chiqishi va foydalanishi zarur. Reyting tizimi bank faoliyatining turi, o'lchamlari va murakkabligiga muvofiq bo'lishi kerak.

4-Bankda rahbariyatga balans va balansdan tashqari faoliyatga taalluqli kredit risklarini baholash imkoniyatini beradigan axborot tizimlari va tahliliy texnologiyalar yaratilishi kerak. Boshqaruv axborot tizimi kredit portfelining tarkibi haqida etarli axborotga ega bo'lishi kerak.

5-Bankda portfelning umumiy tarkibi va sifatini monitoring qilish tizimi mavjud bo'lishi kerak.

6-Ayrim kreditlarni va umuman kredit portfelini baholashda bank kelajakda iqtisodiy shart-sharoitlarning o'zgarish ehtimolini hisobga olishi, shuningdek noqulay sharoitlarda kredit risklarining darajasini baholashi kerak

Mavjud kredit nazoratini belgilashda:

1-Bank kredit risklarini boshqarish jarayonlarini mustaqil baholash tizimini yaratishi kerak, bu tahlillarning natijalari esa bevosita Bank Kengashi va yuqori rahbariyatga taqdim etilishi kerak.

2-Bank kreditlarni berish funksiyasining tegishlicha boshqarilishini ta'minlashi va kreditlar ichki limitlar hamda oqilona standartlar doirasida berilayotganligiga ishonch hosil qilishi kerak. Bank amaldagi siyosat, amallar va limitlardan chekinishlar hamda og'ishishlar haqida choralar ko'rish uchun rahbariyatga o'z vaqtida xabar berilayotganligiga ishonch hosil qilishi uchun ichki nazorat yoki boshqa amallarni belgilashi va bajarishi zarur.

3-Bankda kredit risklarini boshqarish muammolarini hal qilish yoki shu kabi boshqa vaziyatlarni bartaraf etish uchun shoshilinch choralar qabul qilish tizimi mavjud bo'lishi kerak. Zaruriy hujjatlar ro'yxati kredit turi, qarz oluvchi va qo'yilgan garovga bog'liq holda to'ldirilishi yoki o'zgartirilishi mumkin. Lekin bu o'zgartirishlar hamda to'ldirishlar kredit riskini pasaytirishga yo'naltirilgan bo'lishi zarur. Bank kredit shartnomalarida qarz oluvchining moliyaviy holati yomonlashganda yoki garov ta'minotining qiymati pasayganda qo'shimcha axborot olish huquqini belgilab qo'yishi zarur.

Umuman, Bank bo'yicha kredit ishini tashkil etish va rasmiylashtirish ketma-ketligi bo'lishi kerak.

“Kredit siyosati” hujjatli kreditlarni boshqarish jarayonining poydevorini tashkil etadi. Tijorat banki tomonidan ishlab chiqilgan va yozma ravishda qayd etilgan “Kredit siyosati” kreditlarni oqilona boshqarishning samarali yo’llaridan hisoblanadi. Ushbu hujjat bankning kreditlashtirish faoliyatining andozalari va parametrlarini belgilab beradi. Ushbu belgilangan standartlar va parametrlardan kredit berish, qarzlarni hujjatlashtirish va boshqarish bo’yicha ma’suliyatli bo’lgan bank xizmatchilari qo’llanma sifatida foydalanishlari lozim.

Kredit siyosati malakali tuzilib, bank rahbaridan tortib operatorgacha barcha darajalarda me’yorida amalga oshirilsa, bu bank rahbariyatiga to’g’ri qarorlar chiqarish, ortiqcha risklardan xolos bo’lish, bank kreditlarini to’g’ri baholash imkonini beradi. Shu bilan birga bir vaqtda kredit siyosati siyosiy, iqtisodiy va xuquqiy shartlarni hisobga olgan holda ancha yumshoq bo’lishi darkor.

Kredit siyosatining zarurligi shundaki, bank katta yoki kichikligidan, unda kam yoki ko’p xodim ishlashidan qat’iy nazar, bankda bu siyosat bo’lishi lozim. Chunki bu siyosat kredit bo’yicha unifitsirlashgan umumiy qoida va tamoyillarning bajarilishini, operatsiyalar bajarilishining ketma - ketligini ta’minlaydi. Bankning kredit siyosati bankning hamma xodimlari - kichik xodimdan yoki bank boshqaruvi raisigacha bir xil bo’lishi lozim. Shuning uchun ham kredit siyosatini oldindan belgilab olingan qoida va echimlar to’plami deyiladi. Kreditlash siyosati va uning samaradorligi to’g’ri kredit narxlari belgilangan sharoitda muvaffaqiyatli bo’lishi mumkin. Kredit siyosati sifatiga va xolatiga qarab bank jalb qilgan resurslarini to’g’ri joylashtirish va oldindan ko’zlangan daromad olish imkoniyati yaratiladi.

1.2. Tijorat banklarining kredit portfelini shakllantirish mezonlari

Bankning moliyaviy bozordagi mavqei uning kredit portfelini shakllantirish va uni boshqarishdagi muvaffaqiyatlari bilan chambarchas bog’liqdir. Tijorat bankining kredit portfeli deganda turli xil kredit risklarga

asoslangan muayyan me'zonlarga qarab turkumlangan risklar miqyosidagi bank talablarining yig'indisi tushuniladi.⁷

Kredit portfelini to'g'ri shakllantirish tijorat banking samarali va barqaror faoliyat ko'rsatishining asosiy mezoni hisoblanar ekan, har qanday tijorat banki kredit portfelining sifatli bo'lishini ta'minlashga harakat qiladi. Tijorat banklari kredit portfelining sifati va shakllanishi uning tarkibiy qismiga bevosita bog'liqdir.

Kredit portfelini shakllantirish murakkab jarayon bo'lib, o'zida nafaqat kredit siyosati va uning strategiyasi, balki nazorat tizimini yo'lga qo'yish jarayonlarini mujassamlashtiradi. Shu bilan birga, kredit portfelini shakllantirish jarayoni dinamik xarakterga ega bo'lib, doimiy ravishda harakatdadir.

Kredit portfelini shakllantirish bank tomonidan kreditning asosiy tamoyillariga rioya etishni, risk darajasini inobatga olgan holda kreditlar sifatini belgilash va turkumlashni, kreditlar bo'yicha zaruriy zahiralarini tashkil etishni va kredit portfeli sifatini yaxshilash borasida chora-tadbirlarni ishlab chiqishni talab etadi.

Kredit portfelini boshqarish bu - mavjud kredit resurslaridan samarali foydalanish san'ati demakdir, ya'ni samarali boshqaruv natijasida kredit resurslari nafaqat o'zining qiymatini saqlab qoladi, balki sezilarli darajada daromad keltiradi.

Kredit portfelini boshqarishning asosiy bosqichlari quyidagilardan iboratdir:

1. Kreditning maqsadi, ya'ni boshqarish strategiyasi determinantlarini aniq belgilab olish;

2. Turli kreditlarning daromadlilik darajasi to'g'risidagi taxminga ega bo'lish;

3. Tanlab olingan vositalarning oqilona nisbatini ta'minlash maqsadida taxminlar ustuvorligini aniqlash;

⁷ Abdullaeva Sh.Z. Bank risklari va kreditlash. T.: "Moliya", 2002, 166 bet

4.Portfel tarkibida tub o'zgarishlarga sabab bo'luvchi omillarni doimiy tarzda tahlil qilish va o'rganish;

5.Portfel faoliyatini baholash, ya'ni kredit riskiga nisbatan portfeldan olinadigan daromadlarga baho berish.


Kredit portfelini boshqarishning tarkibiy qismlarini batafsilroq ko'rib chiqsak, kredit portfelini shakllantirishning muhim shartlaridan biri kreditning maqsadini aniq belgilab olishdan iborat. Kredit maqsadidan kelib chiqib, kreditlarni quyidagi guruhlariga ajratishimiz mumkin:

-kapitalning o'sishi, ya'ni kelajakda barqaror daromadlar olishga mo'ljallangan uzoq muddatli kreditlar;

-tez muddatlarda daromad olish, ya'ni spekulyativ daromadlarni olishga mo'ljallangan qisqa muddatli kreditlar.

Agar kredit beruvchi bozor holatini yaxshi bashoratlay olishiga ishonsa, u holda u o'zining kredit portfeli tarkibini bozor o'zgarishlariga qarab o'zgartirishi mumkin. Va nihoyat, kredit beruvchi istiqbolli sohalarni aniq bilsa, u holda u diversifikatsiyalashdan voz kechishi va kredit resurslarini eng yuqori daromad beruvchi sohalarga joylashtirishi mumkin. Banklar o'z faoliyatini takomillashtirish, xususan, kredit portfelini sog'lomlashtirish maqsadida mijozlarning iste'mol va boshqa ehtiyojlarini qondirishga yo'naltirilgan bank depozitlari hamda sug'urta va kredit depozitlarining mushtarakligini ta'minlovchi yangi moliyaviy mahsulotlarni taqdim etish orqali aholining jamg'arish va investitsion faolligini rag'batlantirish asosida jismoniy shaxslar bilan ishlarni faollashtirishga alohida e'tibor qaratmoqda.

Tijorat banklari tomonidan jismoniy va yuridik shaxslarning mablag'larini qarz majburiyatlarini emissiya qilish va bank sertifikatlarini chiqarish yo'li orqali jalb etish amaliyotini keng joriy etilmoqda. Bunday amaliyotdan maqsad ushbu resurs turining bank tomonidan jalb qilingan jami mablag'lardagi ulushini oshirishdir. Yuqoridagilardan kelib chiqib, biz tijorat bankida kredit darajasini optimallashtirish maqsadida uning samarali kredit portfelini tarkib toptirish yo'nalishlarini quyidagicha ifodalashimiz mumkin.



2-rasm. Zamonaviy tijorat bankining samarali kredit portfelini tarkib toptirish yo'nalishlari.⁸

Rasmdan ko'rinib turganidek, samarali kredit portfelini tarkib toptirishda tijorat banki resurslarni joylashtirish sohasidagi uchta muhim yo'nalishning oqilona nisbatiga erishishga harakat qilishi lozim:

1. Investirlarni qimmatli qog'ozlarga mablag' kiritishini ta'minlash resurslarni oqilona joylashtirishning asosiy yo'nalishi bo'lib, milliy iqtisodiyot rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

2. Resurs joylashtirishning istiqbolli yo'nalishlaridan biri jismoniy shaxslarni kreditlashdan iborat. Chunki kreditlashning ushbu yo'nalishi nafaqat riskni diversifikatsiya qilish, balki yaxshi daromad ko'rish imkoniyatini ham beradi.

3. O'zbekiston Respublikasining istiqbolli korxonalar bilan uzoq muddatli hamkorlik qilish orqali yuqori dividendli daromadlar olish va ushbu korxonalarni boshqarishda ishtirok etish.

⁸ Банковский менеджмент: учебник / кол. авторов; под ред. д-ра экон. наук, проф. О.И. Лаврушина. – 3 – е изд., перераб. и доп. – М.: КНОРУС, 2010. -С-69.

Kredit portfelining mohiyatini tug'ri tushunish na tahlil qilishda quyidagi mezonlarni e'tiborga olish muhimdir, ya'ni:

-berilgan kreditlar bo'yicha risklilik darajasini ifodalovchi mezonlar;

-bankning barcha bergan kreditlari bo'yicha talablari yig'indisini hisobga olish zarurligi;

-kreditlarning asosiy mezonlari bo'yicha turkumlash lozimligi va boshqalar.

Kredit portfeli faqat normal kreditlarni emas, balki muddati o'tgan kreditlarni xam uz ichiga oladi. Bu omillarni e'tiborga olish tijorat banklarining kredit portfelini shakllantirishda, ularning faoliyatini to'g'ri tashkil qilishda katta ahamiyatga ega. Kredit risklarining darajasi xorijiy banklar va bizning banklarimiz amaliyotida xam banklarning kredit portfelini ifodalovchi me'zonlardan asosiysi xisoblanadi. Aynan

shu ko'rsatkichning darajasiga qarab, kredit portfelining sifati aniqlanadi. Banklarning kredit portfelini baholash va tahlil qilish bank menejerlariga ssuda operatsiyalarini samarali boshqarishga imkon beradi.

Banklarning kredit portfelini tashqil qilishning asosiy maqsadi bankning kredit siyosati sohasidagi strategiyasini ishlab chiqish, kreditlarning sifati tahlil qilish va uni yaxshilash sohasida choralar ishlab chikishdan iborat. Buning uchun bank berilgan kreditlarning belgilangan limitlarga mos kelishi, kredit resurslardan foydalanish samaradorligi, kredit risklarni kamaytirish va kreditlarning sifati yaxshilash kabi ko'rsatkichlarning xaqiqiy holatini tekshirib borishi zarur.

Tijorat banklarining kredit portfelini tashqil qilish kreditlashni tashqil qilish tamoyillariga asoslangan bulmogi lozim. Kreditning muddatliligi, uning uz vaqtida qaytarilishi va to'lovliligi kredit portfelining barqarorligini na sifatliligini ta'minlashga asos bo'lishi mumkin.

Kredit portfelining sifati doimiy ravishda nazorat qilish tijorat banklari faoliyatining samaradorligini oshirish garovidir.

Ularning kredit portfelini oqilona boshqarish esa kredit risklarini kamaytirishning asosiy omillaridan xisoblanadi. Shuni kayd qilish lozimki, banklarning moliyaviy hisobotlari va boshqa kushimcha ma'lumotlari ulardagi aktivlar sifatining real xolatini, shuningdek kredit portfeli bo'yicha mavjud muammolarning bank daromadiga ta'sirini aks ettirishi lozim. Bunday ma'lumotlarning yo'kligi nafaqat bank aktsiyadorlari yoki Markaziy bank va boshqa manfaatdor tomonlarni chalgitib qo'ymasdan, balki bankning o'ziga xam risklarni boshqarish jarayonida zarar etkazishi mumkin. Bankning kredit portfeli va uning sifati to'g'risida aniq ma'lumotga ega bo'lmaslik, zarur xollarda oldindan choralar ko'rilmalik natijasida muammoli kreditlar yuzaga kelishi mumkin.

Muammoli kreditlar banklardagi risklarni minimal darajaga etkazishga to'sik bo'lib turadi. Kredit portfeli sifati xaqida ob'ektiv ma'lumotlarniig yo'qligi bank raxbariyati tomonidan bankning kredit siyosatiga zarur o'zgartirishlar kiritilishiga xam xalaqit beradi.

Banklarning kredit portfelini tashqil qilishda:

-kredit riskliri darajasini inobatga olgan holda kreditlarning sifatini baholash me'zonlarini tanlash;

-va ular asosida kreditning sifatini baholash usullarini ishlab chiqish, ssudalarning asosiy guruxlarini, ularning foiz stavkalar asosida aniqlash;

-kreditlarni tavsiflash;

-xar bir kredit guruhi bo'yicha risk foizi darajasini aniqlash;

-xar bir kredit va bank bo'yicha kredit riskining absolyut summasini aniqlash;

-tegishli ma'lumotlar asosida kreditlar bo'yicha zararlarni qoplash uchun etarli zaxira summasini aniqlash;

-koeffitsientlar bo'yicha kredit portfelining sifatiga baho berish;

-kredit portfelining tarkibini yaxshilash bo'yicha tadbir – choralar ishlab chiqish zarur.

Shunday qilib, tijorat banklarining kredit portfelini turli xil kredit risklarga asoslangan, muayyan mezonlarga qarab turkumlangan kreditlar miqyosidagi bank talablarining yig'indisi bo'lib, uni samarali boshqarish kredit risklarini va umuman olganda bank risklarini kamaytirishning muxim omili hisoblanadi. Banklarning kredit portfelini samarali tashqil qilish va uning sifatini tahlil qilish banklar faoliyatini olib borishda muhim o'rin egallaydi.

1.3. Xorijiy mamlakatlar tijorat banklarning kredit siyosati va uning bank kredit portfelini boshqarishdagi o'ziga xos xususiyatlari

Xorijiy davlatlarning yirik banklarida yozma ravishda kredit siyosati to'g'risida memorandum ishlab chiqiladi va barcha bank xodimlari o'z faoliyatini shu memorandum asosida olib borishlari zarur. Memorandumning tarkibi har bir bankning faoliyatini hisobga olgan holda har xil bo'lsada, u bank faoliyatining asosiy yo'nalishlarini qay tariqada olib borishni o'z ichiga oladi. Memorandumda olib boriladigan siyosatning asosan, ya'ni ko'proq ishonchli va foyda keltiruvchi kreditlar berish, kreditlar berishda mavjud kredit resurslarni hisobga olish, kredit berishning oxirgi chegarasini belgilab berish va boshqalar ko'rsatiladi.

Memorandumda kredit siyosatining umumiy maqsadi aniq aks ettiriladi. Memorandumda kreditlash shakllaridan foydalanish tartibi, kredit siyosatining ustuvor yunalishlari, kreditlarga foiz hisoblash, ularni undirish va balansdan o'chirish masalalari aniq aks ettiriladi.

Hujjatda qaysi kreditlarni berish bank uchun foydali va qaysi kreditlarni berishdan bank saqlanishi lozimligi, bank xodimlariga kreditlar berish, kreditlarning sifatini nazorat qilish shakllari va boshqalar ko'rsatiladi.

Buning uchun quyidagilar aniqlanadi:

- bank uchun ma'qul bo'lgan kreditlar turlari;
- qanday kreditlar berishdan bank o'zini tutish;
- ko'ngildagiday bo'lgan qarzlarning tarkibi;

- ko'ngilsiz qarzlarning tarkibi;
- bankning kreditlash bilan bog'liq faoliyati doirasi;
- bankning o'z xodimlariga kredit berish doirasidagi siyosati;
- qarzdorlikning har xil darajalariga ko'ra kreditlarning hajmini qisqartirish;
- kredit riskini boshqarish, tekshiruv va nazorat doirasidagi bankning siyosati.

Yirik bir amerika banklarining memorandumi sxemasi 5 bo'limni, ya'ni umumiy qoidalar, kreditlar kategoriyasi, kredit siyosatining har xil masalalari, kredit portfeli sifati ustidan nazorat hamda bank qo'mitalarini o'z ichiga oladi.

Kredit siyosati to'g'risidagi memorandumda bankning kredit ekspansiyasini amalga oshirish lozim bulgan geografik xududlar anik aks ettiriladi.

AQSH ning Siti bankining kredit siyosati to'g'risidagi Memorandumining tarkibi quyidagicha:

1. Umumiy qoidalar:

- boshqaruv;
- operatsiyalarni qo'llash sferasi;
- ssudalarning balans portfeli;
- portfelni boshqarish;
- ssudalar depozitlar koeffitsienti;
- bitta mijozga beriladigan kreditning maksimal miqdori;
- ssudalarni berish vakolatlari;
- foiz stavkalari;
- ssudalarni qoplash shartlari;
- kreditlarning ta'minlanganligi;
- kreditga layoqatlilikni baholash tizimi;
- kreditni rasmiylashtirish uchun zarur bo'lgan hujjatlar majmui;
- ssudalar bo'yicha to'lovsizlik koeffitsienti;
- muddati o'tgan ssudalarni balansdan o'chirish;
- ssudalarni prolongatsiya qilish tartibi.

2. Ssudalarning aloxida turlari:

- qishlok xo'jalik korxonalariga berilgan ssudalar;
- sanoat korxonalariga berilgan ssudalar;
- ipoteka ssudalari;
- «Viza» kartochkalari va tiklanadigan ssudalar;
- ipoteka kreditlari berish bilan shug'ullanuvchi filiallar;
- akkreditivlar;
- nomaqbul ssudalar.

3. Kredit siyosatining turli masalalari:

- direktorlarga va bankning ma'sul xodimlariga beriladigan ssudalar;
- bankning oddiy xodimlariga beriladigan ssudalar;
- manfaatlar to'qnashuvi.

4. Ssudalarning sifati ustidan nazorat:

- kreditga layoqatlilikni baholash bo'limi;
- ssuda portfelini taftish qilish.

5. Qo'mitalar:

- direktorlar kengashi qoshidagi ssuda qo'mitasi;
- moliyaviy maslaxatchilar qoshidagi ssuda qo'mitasi;
- ssudalarni taftish qilish buyicha qo'mita.

Barcha rivojlangan xorijiy davlatlarda kreditlash bilan bog'liq operatsiyalar bank aktiv operatsiyalarining asosiy turi bo'lib qolmoqda. Masalan 80-yillarning oxiri va 90-yillarning boshlarida AQSh tijorat banklarining kreditlash operatsiyalari ularning aktiv operatsiyalarining 60 foizini tashkil qildi. Bu ko'rsatkich Frantsiyada - 65,6 foizni, Germaniyada - 53,0 foizni, Italiyada - 48,7 foizni, Gollandiyada - 47,1 foizni, Daniyada - 56,0 foizni, Ispaniyada - 66,4 foizni, Angliyada - 63,5 foizni tashkil qildi.

Xozirgi vaqtda ham kreditlar bank aktivlarining asosiy qismini egallaydi. Quyida dunyoning bir nechta etakchi banklarining aktivlari tarkibi keltirilgan:

**Dunyoning bir qator etakchi tijorat banklarining
aktivlar tarkibi (%da).⁹**

Aktivlar	Doychebank (Germaniya)	Kredi Lionz (Frantsiya)	Banesto (Ispaniya)	Vozrojdenie (Rossiya)
Pul mablag'lari	3.90	3.09	12.94	6.0
Kreditlar	78.65	66.06	25.28	47.0
Qimmatli qog'ozlar	15.50	16.17	23.87	9.0
Boshqa aktivlar	1.95	13.87	37.91	38.0
Jami	100.0	100.0	100.0	100.0

Shuni ta'kidlash joizki, xozirgi vaqtda xorijiy banklar amaliyotida jismoniy shaxslarga beriladigan ssuda operatsiyalari xajmi o'sib bormokda. Masalan, Frantsiya va Germaniyada bunday ssudalar miqdori korxonalar va tashkilotlar oladigan ssudalar miqdori bilan tenglashdi, AQShda esa bunday ssudalar miqdoriga ko'ra birinchi o'ringa chiqdi.

Tijorat banklarining jismoniy shaxslar bilan amalga oshiradigan operatsiyalarini shartli ravishda ikki yirik guruxga bulish mumkin: iste'mol krediti va uy-joy krediti.

Iste'mol krediti deganda, odatda, tovarlar sotib olish maqsadida beriladigan kreditlar tushuniladi. Bunday kreditlar xorijiy davlatlarda rivojlangan. Ular aholining tovarlarni sotib olish talabini rag'batlantiradi. Ayniqsa, o'rtacha daromad ko'radigan shaxslar iste'mol kreditidan keng foydalanadilar.

Rivojlangan xorijiy davlatlarda individual mijozlarga beriladigan ssudalar ichida ahamiyatiga ko'ra ikkinchi o'rinni ipoteka ssudalari egallaydi. Ular asosan uy-joy qurish, ularni ta'mirlash yoki sotib olish maqsadlariga beriladi. Bunday kreditlar uchun garov sifatida uy, er uchastkasi olinishi mumkin.

Xalqaro bank amaliyotida uy-joy kreditining muddati 7 yildan 20 yilgacha, ayrim hollarda 30 yilgacha belgilanadi. Bunday kreditlar yuqori foiz riskiga ega, chunki bu muddat mobaynida jalb qilingan resurslarning bahosi oshishi mumkin. Shuning uchun tijorat banklari uy-joy kreditini berishda suzib yuruvchi foiz stavkalaridan foydalanadilar.

⁹ www.deltacredit.ru

Jahon amaliyotida bank kreditlarini yagona, umumlashgan tasnifi yo'q, chunki kreditlarni turli xil shakllari har bir mamlakatning iqtisodiy rivojlanish darajasiga, uning urf-odatlariga, aholi orasida ssudalarni berish va qaytarish tarixan shakllangan usullariga bog'liq bo'ladi. Shunday bo'lsa ham eng ko'p uchraydigan bank kredit operatsiyalarini turli xil mezonlar va o'lchovlaridan kelib chiqqan holda, guruhlalashtirish mumkin. Aksariyat mamlakatlarda, jumladan, g'arbiy Evropaning ko'pgina mamlakatlarida kreditlar muddatiga ko'ra uch turga: qisqa, o'rta va uzoq muddatli kreditlarga bo'linadi. Bunda qisqa muddatli kreditlar jumlasiga bir yil muddatgacha beriladigan kreditlar, o'rta muddatli kreditlarga bir yildan besh yilgacha va uzoq muddatli kreditlarga besh yildan ortiq muddatga beriladigan kreditlar kiritiladi.

4-jadval.

Qaytarish muddati bo'yicha kreditlarni tasniflash.¹⁰

Davlatlar	Rossiya	AQSh	Buyuk Britaniya	Frantsiya
Muddati				
Qisqa	1 yilgacha	1 yilgacha	3 yilgacha	2 yilgacha
O'rta	1-3 yil	1-6 yil	3-10 yil	2-7 yil
Uzoq	3 yildan ortiq	6 yildan ortiq	10 yildan ortiq	7 yildan ortiq

Kreditning samaradorligini ta'minlash maqsadida G'arb mamlakatlari amaliyotida kreditlashnin yangi qoidasi qo'llaniladi. Bu qoida kreditlashda "5 "S" lar qoidasi" deb yuritiladi.

"5 "S" lar qoidasi"ga asosan har bir "S" bo'yicha korxonaning faoliyati tahlil qilib chiqiladi va korxonaga faoliyati talabga javob bersagina korxonaga kredit beriladi. Qoidaga asosan "S" xarflari korxonaning xo'jalik faoliyatini quyidagi jihatlarini ifodalaydi.

Character - karz oluvchining xarakterini baholash, hamda bozordagi obro'si;

¹⁰ Отчетная информация рейтингового агентства "Анбог-рейтинг" 2013г.

Capacity – qarz oluvchining boshlagan ishini oxiriga etkaza olish, tegishli daromad olish, hamda bank kreditlarini qaytarib berish qobiliyati;

Capital – qarz oluvchining sarmoyasini etarliligi;

Conditions – shartlar. Bunda iqtisodiy muhim va mazkur biznesni rivojlanishi nazarda tutiladi.

Collateral – garov (kafolat, kafillik, sug'urta polisi, tovar moddiy boyliklar) va boshqalar.

Xulosa qilib aytganda, tijorat bankining kredit siyosati bank krediti yo'naltiriladigan iqtisodiyot sohaslarini belgilab olishi, kreditlash usullari, kreditlash ko'rsatkichlari, kreditlarni qaytarib to'lash shartlari va qoidalari, kreditning muddati, qarzdorlikni undirib olish bo'yicha chora tadbirlar, yuridik va jismoniy shaxslarning moliyaviy hisobotlariga qo'yiladigan talablar, mijozning kreditga layoqatlilik ko'rsatkichlari to'g'risidagi ma'lumotlarni o'zida ifoda qiluvchi qarzdorlarning faoliyatiga oid moliyaviy axborotlar, garov ta'minotiga qo'yladigan talablar, kredit monitoringiga qo'yiladigan talablar, foiz stavkalari bo'yicha bajariladigan operatsiyalar, ko'zda tutilmagan holatlar moddalari, kredit portfelini audit qilish bo'yicha talablar bank Boshqaruvi va kengashiga taqdim qilinadigan hisobotlar bo'yicha talablarni o'zida ifoda qilishi lozim.

II BOB. TIJORAT BANKLARI KREDIT PORTFELINING AMALDAGI HOLATI VA UNING TAHLILI

2.1. “O’zsanoatqurilishbank” OATB ning tashkiliy-iqtisodiy tavsifi va mijozlar bilan ishlash siyosati

“O’zbekiston sanoat - qurilish banki” ochiq aktsiyadorlik tijorat banki O’zbekiston Respublikasidagi eng boy tarixga molya muassasalaridan biri sanaladi. Uning tarixi Toshkentda Sanoatbankning O’rta Osiyo idorasi ochilgan vaqtdan, ya’ni 1922 yildan boshlanadi.

“O’zsanoatqurilishbank” OATB ning asosiy vazifasi-bank tizimidagi islohotlarni yanada kengaytirish, uning barqaror rivojlanishini ta’minlash borasidagi hukumatimiz ko’rsatmalarini muntazam amalga oshirib borish hisoblanadi.

“O’zsanoatqurilishbank” OATB ning rivojlanish strategiya bankning likvidlik darajasini yana ham mustahkamlash, moliya-bank tizimi bazasini ko’paytirishga, ishlab chiqarishni modernizatsiyalash, texnik va texnologik yangilash, korxonalarni moliyaviy sog’lomlashtirish, yangi mahsulot turlarini tadbiq etish, yangi ish joylarini yaratish uchun investitsiyalar kiritishga hamda bank omonatchilari, mijozlari va aktsiyadorlarining pul mablag’larini ko’paytirishga qaratilgan.


5-jadval.

“O’zsanoatqurilishbank” OATB faoliyatini moliyaviy ko’rsatkichlari (mlrd.so’m).¹¹

Ko’rsatkichlar	01.01.2013	01.01.2014	O’sish sur’ati %
Aktivlar	5036,5	6829,9	35,6
Majburiyatlar	4701,5	6395,9	36,0
Kapital	335,0	434,0	29,6
Foyda	31,8	46,97	47,7

¹¹ O’zsanoatqurilishbank” OATB ma’lumotlari asosida tuzilgan.

“O’zsanoatqurilishbank” OATB bir necha o’n yillar mobaynida muvaffaqiyatli bank faoliyatini yuritishda barchaga namuna bo’lib, bankning barcha moliyaviy ko’rsatkichlarini o’sishi kuzatildi.




1-diagramma. “O’zsanoatqurilishbank” OATB ning aktivlarni o’sishi (mlrd.so’m).¹²

Bank xizmatlariga talabning o’sishi va O’zbekiston banklari orasida raqobatni kuchayib borishi bank aktivlarini keskin ortishiga sabab bo’ldi. Hisobot yilida aktivlar hajmi 35,6 % yoki 1793,4 mlrd. so’mga ko’payib, 6829,9 mlrd. sso’mga etdi.

Bank xizmatlariga talabning o’sishi va O’zbekiston banklari orasida raqobatni kuchayib borishi bank aktivlarini keskin ortishiga sabab bo’ldi. Hisobot yilida aktivlar hajmi 35,6 % yoki 1793,4 mlrd. so’mga ko’payib, 6829,9 mlrd. so’mga etdi.


Bank kapital mablag’larining asosini ustav kapitali tashkil qiladi. Bank ustav kapitali tashkil 2014 yil boshiga nisbatan 26,5% ga ko’payib, 318,5 mlrd. so’m miqdorida shakllantirildi. Shunda 312,9 mlrd,so’mi oddiy va 5,6 mlrd. so’mi imtiyozli aktsiya hissasiga to’g’ri keldi.

¹² O’zsanoatqurilishbank” OATB ma’lumotlari asosida tuzilgan.



2-diagramma. “O’zsanoatqurilishbank” OATB ning o’z mablag’larini o’sishi (mlrd.so’m).¹³

Bank tomonidan o’z mablag’larini ko’paytirish borasida ko’rilgan choralar aktivlarga yo’naltirilgan resurslarni ortishiga ijobiy ta’sir qildi. Yildan –yilga bank foydasi oshib bormoqda. Oxirgi besh yil davomida foydaning o’sish dinamikasiga nazar soladigan bo’lsak, 2009 yildagi 10,2 mlrd.so’m 2013 lilda 46,97 mlrd.so’mga etganini kuzatishimiz mumkin. 2014 yilning boshiga nisbatan foyda hajmi 47,7 % ga oshishi ta’minlandi.



3-diagramma. “O’zsanoatqurilishbank” OATB foydasining o’sish dinamikasi (mlrd. so’m).¹⁴

¹³ O’zsanoatqurilishbank” OATB ma’lumotlari asosida tuzilgan.


¹⁴ O’zsanoatqurilishbank” OATB ma’lumotlari asosida tuzilgan.

Bank o'z mijozlariga yangi va takomillashgan xizmatlarni hamda xizmat ko'rsatishning zamonaviy texnologiyalarini taklif etib, ularga sifatli xizmat ko'rsatishning eng maqbal shart-sharoitlarini yaratadi. Mijozlar ishonchi va ularning uzoq muddatli hamkorlikka tayyorligi Bankning asosiy tayanchi sanaladi. Mijozlar bilan uzoqmuddatli va o'zaro manfaatli munosabatlarni o'rnatish Bankning muvaffaqiyatli ish faoliyati garovi hisoblanib, quyidagi Bankning mijozlar siyosatini asosiy tamoyillarini belgilaydi:

-tezkorlik va yuqori sifatli xizmat;

-Mijozlarga xizmat ko'rsatishda, ularning manfaatlari, talablari va imkoniyatlariga mos e'tiborli yondashuv.

“O'zsanoatqurilishbank” OATB doimiy o'sib boruvchi mustahkam mijozlar bazasiga ega. Xozirgi kunda bank tomonidan yuridik va jismoniy shaxslardan iborat bo'lgan 1 milliondan ortiq mijozlarga xizmat ko'rsatiladi.




4-diagramma. Aholi bo'sh pul mablag'larini omonotlarga jalb qilinishi yillar bo'yicha (mlrd. so'm).¹⁵

Mijozlarga xizmatlar ko'rsatishda yanada qulayliklar yaratish maqsadida 44 filial, 44 ta minibank, 62 ta jamg'arma kassa, 42 ta massus kassa, 153 ta turli

¹⁵ O'zsanoatqurilishbank" OATB ma'lumotlari asosida tuzilgan.

turdagi to'lovlar qabul qiluvchi shahobchalar, 105 ta halqaro pul o'tkazmalarini amalga oshirish shahobchalari va 53 ta valyuta ayriboshlash shahobchalari faoliyat yuritmoqda.


“O'zsanoatqurilishbank” OATB 2014 yil 1 yanvar holatiga aholining milliy va xorijiy valyutadagi omonatlari 319,9 mlrd. so'mni tashkil qilib, o'tgan yil boshiga nisbatan 51,5 mlrd. so'mga ortdi. Bunda asosiy e'tibor aholining muddatli va jamg'arma omonotlarini ko'paytirishga qaratilib, ularning hajmi 164,2 mlrd. so'mga etkazildi.



5-diagramma. “O'zsanoatqurilishbank” OATB tizimida yillar bo'yicha plastik kartalar muomalaga chiqarilishi (ming dona).¹⁶

Moliyaviy chakana xizmatlarni yangi turlarini kengaytirish maqsadida, bankda plastik kartalar asosida ko'rsatiladigan xizmatlar tez sur'atlarda rivojlanib bormoqda. 2014 yil y yanvar holatiga bank tomonidanjami 885,2 ming dona plastik kartochkalar muomalaga chiqarilgan.

¹⁶ O'zsanoatqurilishbank” OATB ma'lumotlari asosida tuzilgan.



6-diagramma. “O’zsanoatqurilishbank” OATB tomonidan o’rnatilgan terminallar sonini yillar bo’yicha o’sishi.¹⁷

Xizmat ko’rsatishda mijozlarga qulayliklar yaratish uchun jami o’rnatilgan terminallar soni 7,1 mingtaga, shundan savdo shahobchalaridagi terminallar 6,6 mingtaga, jamg’arma kassa va mini bankdagi terminallar soni 568 taga etkazildi.


Tahlillar natijasidan ko’rinib turibdiki, “O’zsanoatqurilishbank” OATB ning bosh strategik maqsadi Respublika moliya bozorida etakchi o’rinni saqlab qolish, yillar davomida to’plagan boy tajribani saqlab qolishdan iboratdir.

2.2. “O’zsanoatqurilishbank” OATB kredit siyosatining mezonlari va uning tahlili

“O’zsanoatqurilishbank” OATB istiqbolli investitsiya loihalarini amalga oshirishga, import o’rnini bosuvchi va eksportga mo’ljallangan mahsulotlar, iste’mol tovarlari ishlab chiqarishni mahalliyashtirish va ko’paytirishga, xizmat ko’rsatilgan korxonalarni moliyaviy holatini sog’lomlashtirishga samarali ravishda mablag’larni yo’naltirishini ko’zda tutuvchi faol kredit siyosatini yuritib kelmoqda.

¹⁷ O’zsanoatqurilishbank” OATB ma’lumotlari asosida tuzilgan.


Bankning respublika ahamiyatiga molik bo'lgan ijtimoiy va iqtisodiy rivojlantirish dasturlarini kreditlashda va moliyalashtirishdagi ishtiroki - “Qo'ng'iroq suda zavodi”, “Dehqonobod kaliyli o'g'itlar zavodi”, “Farg'ona xududiy elektr tarmoqlari korxonasi” OAJ, “Toshkent elektr tarmoqlari” OAJ, “Navoiy issiqlik elektr stantsiyasi” OAJ va boshqa shu kabi muhim ob'ektlarni qurish, eng zamonaviy asbob-uskunalar asosida modernizatsiya qilish va texnik qayta jihozlash imkonini berdi.



6-diagramma. “O'zsanoatqurilishbank” OATB ning kredit portfeli o'sish dinamika (mlrd.so'm).¹⁸

2014 yil 1 yanvar holatiga Bankning kredit portfeli 4944,2 mlrd. so'mni tashkil qilib, 2013 yil boshiga nisbatan 1427,6 mlrd. so'mga yoki 40,6 % ga ortti. Kredit ko'yilmalari to'liq ravishda iqtisodiyotning real sektoriga, xususan 3940,6 mlrd. so'mi - sanoat tarmog'iga, 46,5 mlrd. so'mi-qishloq ho'jaligiga, 381,2 mlrd. so'mi - transport va aloqa sohasiga, 292 ,5 mlrd. so'mi - qurilish ishlariga, 121,1 mlrd. so'mi - savdoga, 15,9 mlrd. so'mi - moddiy - texnik ta'minotga, 9,9 mlrd. so'mi - uy - joy - kommunal xizmatlariga va 136,5 mlrd. so'mi boshqa sohalarga yo'naltirilgan.


¹⁸ O'zsanoatqurilishbank” OATB ma'lumotlari asosida tuzilgan.



7-diagramma.01.01.2014 yil holatiga iqtisodiyot tarmoqlari bo'yicha kredit qo'yilmalar.¹⁹

“O'zsanoatqurilishbank” OATB uzoq muddatli kreditlar ajratish orqali mamlakatimiz iqtisodiyotining bazaviy tarmoqlarini moliyalashtirish ishlarida faol ishtirok etib kelmoqda.

Kredit qo'yilmalari tarkibida uzoq muddat kreditlar ulushi 84,1 % ni yoki 4161,3mlrd.so'mni, qisqa muddatli kreditlar 15,9 % yoki 782, 9 mlrd. so'mni tashkil qildi.




8-diagramma.Kichik biznes sub'ektlariga berilgan kreditlarning o'sish dinamikasi (mln. so'm).²⁰

¹⁹ O'zsanoatqurilishbank” OATB ma'lumotlari asosida tuzilgan.


²⁰ O'zsanoatqurilishbank” OATB ma'lumotlari asosida tuzilgan.

2014 yil 1 yanvar holatiga kichik biznes sub'ektlariga jami 493,9 mlrd. so'mlik kreditlar, jumladan 48,8 mlrd. so'mlik mikrokreditlar ajratildi. Mazkur kreditlarning 430,1 mlrd.so'mi o'z mablag'lari va 63,8 mlrd. so'mi halqaro moliya muassasalarining kredit liniyalari hisobiga moliyalashtirildi.



9-diagramma. Ayollar tadbirkorligini rivojlantirishga berilgan kreditlarning o'sish dinamikasi (mln.so'm).²¹

Ayollar tadbirkorligini rivojlantirishga ushbu vaqtda 30,3 mlrd. so'm kredit ajratildi.



10-diagramma. Imtiyozli kreditlash maxsus jamg'armasi hisobidan berilgan kreditlarning o'sish dinamikasi (mln.so'm).²²

²¹ O'zsanoatqurilishbank" OATB ma'lumotlari asosida tuzilgan.

²² O'zsanoatqurilishbank" OATB ma'lumotlari asosida tuzilgan.


Mikrofirmalar, kichik korxonalar, dehqon va fermer ho'jaliklarini, yuqori texnologiyalarga asoslangan va innovatsion loyihalarni imtiyozli ravishda moliyalashtirish uchun "O'zsanoatqurilishbank" OATB da 22,97 mlrd., so'm miqdorida Imtiyozli kreditlash maxsus jamg'armasi shakllantirildi. Ushbu jamg'arma hisobidan 2013 yilda 8,433 mlrd. so'm kreditlar ajratildi.

6-jadval.

Bank tomonidan tadbirkorlikni rivojlantirishga berilgan kreditlarning o'sishi (mln.so'm).²³

Ko'rsatkich	01.01.2012	01.01.2013	01.01.2014
Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirishga berilgan kreditlar	1185	3151	6569,4
Kasb-hunar kollejlari bitiruvchilariga tadbirkorlikni rivojlantirish uchun berilgan kreditlar	1451	1872	5691

Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish uchun 6,6 mlrd. so'mlik kreditlar berildi. Kasb-hunar kollejlari bitiruvchilarining tadbirkorlik faoliyatini yo'lgan qo'yish uchun berilgan kreditlar hajmi 2012 yilga nisbatan 3 barobarga ortdi va 5,7 mlrd.so'mni tashkil qildi.



11-diagramma. Iqtisodiyot tarmoqlari bo'yicha lizing operatsiyalari portfeli (%).²⁴

²³ O'zsanoatqurilishbank" OATB ma'lumotlari asosida tuzilgan.

²⁴ O'zsanoatqurilishbank" OATB ma'lumotlari asosida tuzilgan.

Bankda lizing xizmatlari yanada rivojlanib va takomillashib bormoqda. 2014 yil 1 yanvar holatiga lizing amaliyotlari portfeli 26275,2 mln. so'mni tashkil qilib, shundan 14 % -sanoat tarmog'i, 21 % - qurilish, 33 % - qishloq ho'jaligi, 14 % - transport va aloqa,7 %- moddiy-texnik ta'minot va maishiy xizmatlar, 11 % - boshqa tarmoqlar hissasiga to'g'ri keladi. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish uchun "O'zsanoatqurilishbank" OATB da halqaro moliyaviy muassasalarning kredit liniyalari muntazam jalb qilinmoqda. 2014 yil 1 yanvar holatiga xorijiy kredit liniyalari faol jalb qilinishi hisobiga 14 ta investitsiya loyihalari jami 14,2 mln. AQSh dollari miqdorida moliyalashtirildi. Shundan Germaniya banklari kredit liniyalari hisobiga 12 loyiha uchun 10,54 mln. AQSh dollari va Jaxon banking mablag'lari hisobiga 2ta loyiha uchun 3,66 mln. AQSh dollari miqdorida mablag'lar ajratildi.

III BOB. IQTISODIYOTNI MODERNIZATSIYALASH SHAROITIDA O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI TIJORAT BANKLARINING KREDIT SIYOSATINI BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI

3.1. Tijorat banklarida kredit portfelini samarali boshqarish usullarini takomillashtirish

Tijorat banklari kredit portfelining sifat darajasining pasayishi ularning moliyaviy barqarorligiga salbiy ta'sir qiladi, chunki kreditlash tijorat banklari uchun birlamchi ahamiyatga ega bo'lgan faoliyat turi hisoblanadi, muddatida qaytarilmagan kreditlarning kredit qo'yilmalari hajmidagi salmog'ining oshishi bankning likvidligini keskin pasayishiga olib keladi, tijorat banklari kredit portfelini samarali tarzda boshqarish xo'jalik sub'ektlarining kredit mablag'lariga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish imkonini beradi.

Bugungi kunda Respublikamizda iqtisodiyotni rivojlantirishga yo'naltirilayotgan bank kreditlari hajmining oshishi, bank kreditlaridan foydalanayotgan turli mulkchilik va xo'jalik yuritish shaklidagi mijozlar miqdori ko'payishi va banklar tomonidan berilayotgan kreditlarni oqilona joylashtirish va ular samaradorligini oshirish, berilgan kreditlar hamda ular bo'yicha hisoblangan foizlarni o'z vaqtida undirib olishni ta'minlash banklar kredit portfeli ustidan doimiy kuzatib borish asosiy ishi deb talab qilinmoqda.

Tijorat banklari kredit portfelini boshqarish muhim ahamiyatga ega hisoblanadi, chunki kredit operatsiyalari bank operatsiyalari ichida asosiy o'rinni egallaydi. Shundan kelib chiqib, bank daromadining asosiy qismini kredit operatsiyalaridan keladigan daromad tashkil etadi. Bank kredit portfelini boshqarishni sifatli tashkil etish kredit riskini kamaytirishga xizmat qiladi.

Yuqorida aytib o'ttanimizdek, bank kredit portfelini boshqarish tartibi bank kredit siyosati orqali belgilanadi. Har bir bank o'z siyosatidan kelib chiqqan holda kredit portfelini boshqaradi, ammo shunga qaramay tijorat bank kredit portfelini boshqarishning umumiy mezonlarini ko'rib chikish mumkin.

Ma'lumki hozirgi davrda tijorat banki kredit portfelini boshqarishning asosiy vazifalari sifatida quydagilarni ko'rsatib o'tishimiz mumkin:

-kredit riski darajasiga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni aniqlash va ularni baholash;

-ssudalarni risk guruxlari bo'yicha tasniflash;

-kredit portfelini kredit risklari, mijozlar tarkibi va ssudalar tarkibi bo'yicha optimallashtirish;

-qarz oluvchini kreditga layoqatlilik darajasini va uning moliyaviy ahvoliding, kredit riskini prognoz qilish maqsadida o'zgarishi ehtimolini aniqlash;

-muammoli ssudalarni oldindan aniqlash;

-yaratilayotgan zaxiraning etarligini baholash va uni o'z vaqtida to'g'rilab borish;

-kredit ko'yilmalarini diversifikatsiya qilishni, ularning likvidligini va daromadlilikini ta'minlash;

-bankning kredit siyosatini ishlab chiqish va uni kredit portfelining sifati taxliligiga asoslangan holda to'g'rilab borish.

Tijorat banki kredit portfelini boshqarish riski boshqarish bilan uzviy bog'likdir. Bank risklarini boshqarish tamoyillariga quyidagilarni kiritishimiz mumkin:

-risk chegaralarini aniqlash va baholash - zarar keltirishi mumkin bo'lgan manbalarni yoki riskli holatlarni aniqlash, riskni o'lchash, kelajakda ro'y berishi mumkin bo'lgan risklarni prognoz qilish;

-risklar ustidan nazorat o'rnatish - bank xizmatlari va barcha bo'linmalari bo'yicha riskni nazorat qilishni muvofiqlashtirish, riskni kamaytirishni iqtisodiy rag'batlantirish, monitoring va riskni boshqarish tartiblarining samaradorligini oshirish;

-riskni moliyalash - mavjud bo'lgan zaxiralardan foydalanish, "favqulodda holatlar" strategiyasini saqlash, bankning xizmatlari va barcha tizimlari bo'yicha risklarni moliyalashga ketadigan xarajatlari uchun mablag' ajratish.

Risklarni boshqarishda kredit riskini boshqarish va kredit ta'minoti bo'limi o'ziga xos rol o'ynaydi va quyidagi funktsiyalarni bajaradi:

-kreditlar reytingi siyosatini ishlab chiqish va monitoring hamda kreditlar holatini qayta baholash;

-yangi kreditlar olish uchun me'yorlarni ishlab chiqish;

-kreditlar berish bo'yicha javobgarlikni taqsimlash;

-ssudalarga mijoz faoliyat ko'rsatadigan tarmoq, xudud va biznes turiga qarab cheklovlar va limitlarni belgilash;

-kredit portfeli riskini muntazam baholash;

-barcha ssudalar kuzatuv siyosatini, shuningdek, ishonchsiz ssudalarni qaytarish mexanizmini ishlab chiqish;

-muzlatilgan kreditlar va to'lanmagan ssudalarni so'ndirish siyosatini ishlab chiqish;

-kreditlar va kredit garovi hamda kafolatlarini rasmiylashtirishga qaratilgan me'yorlarni ishlab chiqish;

-kredit berishni ma'qullash amaliyoti va foiz siyosatini, shuningdek yuridik va xuqukiy asoslarini ko'rib chiqish;

-kredit portfelini kengaytirish yoki qisqartirish siyosatini ishlab chiqish va uning tadbiq etilishini nazorat qilish.

Kredit risklari sohasidagi bank menejmentining samaradorligi to'g'risida quyidagi omillarga qarab xulosa chiqarish mumkin:

-tasniflangan ssudalar va riskning 1, 2, 3 va 4 guruhlariga bo'linuvchi maxsus klassifikatsiyalarining dinamikasi;

-shubhali, umidsiz, qayta rasmiylashtirilgan yoki muddati uzaytirilgan kreditlar dinamikasi;

-kredit portfelida muddati uzaytirilgan foizlar va kreditlarning ulushi;

-foiz to'lanmaydigan ssudalarning xajmi va tuzilishi;

-yirik kreditlar xajmi;

-ssuda ma'muriyati ishlarining samaradorligi, ya'ni muddati uzaytirilgan ssudalarning mavjudligi va ularning xajmi, qo'llaniladigan taxlil tizimi xamda yuritilayotgan siyosatning o'ziga xosliligi.

Kredit riski soxasidagi kredit portfeli menejmenti quyidagilarni nazarda tutadi:

1. Risklarni etarlicha qoplash va taqsimlash;
2. Vazifalarni aniq belgilab olish;
3. vakolatlar taqsimlanishining aniq tizimi;
4. sifatli kredit xujjatlari;
5. Risklarni sezgirlik bilan kuzatib turish;
6. Boshqaruvning to'liq axborot va nazorat tizimi;
7. Kreditlarning qaytarilmaslik muammolari bilan shug'ullanuvchi xizmat

ishining samaradorligi.

Risklarni taqsimlash.

Bankning kredit portfeli shunday diversifikatsiya qilingan bo'lishi lozimki, bunda biror bir mijozning, mijozlar guruhining yoki ma'lum bir tarmoqdagi mijozlarning nochor holatga tushib qolishlari bank faoliyati uchun xavf tug'dirmasligi kerak. Bu mamlakatlarning o'z qarzlarini to'lashga layoqatsizligi ba'zi banklarni, jumladan yirik banklarni ham murakkab ahvolga solib qo'yadi. Chunki, banklar mablag'larining ma'lum qismini zaxiralarni yaratishga sarflashlariga to'g'ri keladi.

Risklarni qoplash.

Mijozlarning bankrotligi bilan bog'liq bo'ladigan risklarga qarshi tura olish uchun har bir bank etarli miqdorda o'z mablag'lariga ega bo'lishi kerak. Bu narsa ularga yuzaga keladigan zararlarni qoplay olish va to'lov layoqatini saqlab qolish imkoniyatini yaratadi.

Tijorat maqsadlari.

Bank aloqada bo'lishni istagan mijozlar kategoriyalari mijozlarning xozirdagi va bashorat qilinayotgan quvvatlarini hamda ularni bozorga tadbiq qilish imkoniyatlarini hisobga olgan holda aniqlanadi.

Risklar sifatini aniqlash.

Risklar sifati ko'rsatkichlarini aniqlab olish mijozning bankrotligi oqibatida yuzaga keladigan zararlarni cheklash uchun juda ham muhim. Risklarni son

ko'rinishida ifodalash uchun baholash, shuningdek tashqi yoki ichki "reytinglash" tizimini amalga kiritish foydalidir.

Rentabellik masalalari.

Kredit faoliyati bankning rentabelligini aniqlab beradi. Yaxshi rentabellik va risklarning yaxshi sifati o'rtasidagi muvozanatga erishish ancha mushkul ishdir. Bank kredit siyosati bu ikki "suv osti toshlari"ga qoqilib ketmaslik uchun amal qilinishi lozim bo'lgan me'yorlarni aniq ko'rsatib berishi shart.

Mazmundorlik.

Bunga, avvalo, kreditni berish, uni ko'paytirish, kamaytirish yoki uni rad qilishga asos bo'ladigan qarorni qabul qilish uchun lozim bo'ladigan quyidagi xujjatlar kiradi:

-mijoz moliyaviy holatining tahlili;

-mijoz faoliyati to'g'risidagi iqtisodiy axborot;

-aktsiyadorlar va raxbarlar to'g'risida axborot;

-kredit shartlarining o'zgarganligi yoki uning qayta tiklanganligi to'g'risida umumlashtiruvchi xat;

-mijoz hisobvaraqlaridagi holat, to'lanmagan to'lovlar va rentabellik;

-to'langan foizlar va kredit risklarini qoplash uchun yaratilgan zaxiralar to'g'risida buxgalteriya tomonidan berilgan ko'rsatma.

Sifatli shakl.

Kredit paketi shunday tuzilishi kerakki, undan foydalanuvchi shaxs o'ziga kerakli ma'lumot va xujjatlarni xech bir qiyinchiliksiz, osonlik bilan topa olsin. Bu ayni bir mijoz uchun bevosita javobgar bo'lgan kredit xodimining yuqligida yoki javobgar shaxs o'zgarganida ayniqsa, muhimdir. Bu esa unga tezda qaror qabul qilishga imkon beradi.

Har bir mijoz bo'yicha uning xisobraqamini boshqaradigan mas'ul xizmatchi tayinlanishi kerak. Javobgarlikning yuqolishi zararlarni keltirib chikaruvchi omil hisoblanadi.

Boshqarish uchun yaxshi axborot tizimi.

Mijoz tomonidan olingan barcha kreditlar to'g'risida har kuni ma'lumot olish imkoniyatini yaratadigan yaxshi axborot tizimi juda ham zarur. Ma'lumotlar barcha o'zgarishlarni o'z ichiga olishi lozim. Odatda, "risklar holati" deb ataluvchi bunday axborot mijozning holati to'g'risida aniq tasavvurlarni hosil qiladi.

Kreditni oshib ketishi ustidan nazorat.

Kredit berish xaqida qaror qabul qilish tizimi kabi kredit summasining oshib ketishiga ruxsat berish tizimini yaratish zarur. Xar bir organ kreditlarning ma'lum chegaragacha oshib ketishini o'z vakolati doirasidagina hal qilishi mumkin.

Bu tizim kuzatilgan kreditni markazlashgan yoki mintaqaviy darajada nazorat qila oladigan va bu oshib ketishlarni bartaraf eta oladigan bo'lishi kerak. Kredit summasining oshib ketishiga sabablar turlicha bo'lishi mumkin, ularni esa nazorat qilish juda muhim. Bunga quyidagilar sabab bo'lishi mumkin:

-moliyalashtirishga bo'lgan ehtiyojning noto'g'ri baholanishi;

-aylanma mablag'larga bo'lgan extiyojlarning o'sishiga olib keladigan oborotning oshishi;

-muvaqqat yoki mavsumiy qiyinchiliklar. Masalan, ba'zi mijozlar tomonidan to'lovlarning tutib qolinishi yoki maxsulotlarning sotilmay yig'ilib qolishi;

-ish faolligining pasayishi, ishlar holatining yomonlashuvi yoki yirik mijoz korxonalarining bankrotligi bilan bog'liq zararlar.

Agar yuqoridagi birinchi uchta sabablardan birortasi aniqlansa, bu kreditni qayta ko'rib chiqish uchun sabab bo'la oladi. Agar zarurat tug'ilsa, ssuda summasi kafolatlar yoki garov miqdorining muvofiq ravishda o'zgartirilishi bilan birga vaqtincha yoki umuman oshirilishi mumkin. Shuningdek, bank o'z mijozini qo'shimcha mablag'larni jalb qilish uchun boshqa banklarga murojaat qilishga ham ko'ndirishi mumkin.

Oxirgi sabab, ancha jiddiy bo'lib, u mijoz korxonani bankrotlikka olib kelishi mumkin. Shuning uchun ham bu holatda bankning roli ancha nozik.

Kredit berishni to'xtatish yoki uning summasini cheklash mijozning bankrot bo'lishini tezlatishi mumkin. Kreditni avvalgi xolaticha berib turish va xatto uni oshirish korxonani sun'iy ravishda ushlab turishga yordam berishi mumkin. Bu esa keyinchalik jiddiy zaralarni keltirib chiqaradi.

3.2.O'zbekiston respublikasi tijorat banklarida kreditlash amaliyotining rivojlanish tendentsiyalari

2014 yilda respublika bank tizimini yanada isloh qilish va rivojlantirish bo'yicha chora-tadbirlar O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013 yilda respublikani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2014 yilgi iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor vazifalariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi dasturiy ma'ruzasi, 2010 yil 26 noyabrdagi PQ-1438-sonli Qarori bilan tasdiqlangan "2011-2015 yillarda respublika moliya-bank tizimini yanada isloh qilish va barqarorligini oshirish hamda yuqori xalqaro reyting ko'rsatkichlariga erishishning ustuvor yo'nalishlari bo'yicha kompleks chora-tadbirlar" Dasturi hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Vazirlar Mahkamasining respublika moliya-bank tizimini rivojlantirishga oid boshqa qarorlarida belgilangan vazifalardan kelib chiqqan holda amalga oshirildi.

Bunda asosiy e'tibor:

-tijorat banklarining kapitallashuv va resurs bazasini yanada oshirish, mazkur sohaga xususiy kapitalni keng jalb etish, aktivlar sifatini yaxshilash hamda banklarning moliyaviy barqarorligi va likvidliligini yanada mustahkamlash;

-respublika tijorat banklari faoliyatini tartibga solish va bank nazorati tizimini bank nazorati bo'yicha Bazal qo'mitasining yangi (Bazel III) talablari asosida takomillashtirish ishlarini davom ettirish;

-iqtisodiyotning real sektorini moliyaviy qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilayotgan bank kreditlari hajmlarini yanada ko'paytirish, tijorat banklarining investitsion faolligini kuchaytirish;

-kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning rivojlanishini moliyaviy qo'llab-quvvatlash, aholi bandligini oshirish, birinchi navbatda, yoshlar va ayollar bandligini oshirishga qaratilgan biznes loyihalarni moliyalashtirishga kreditlar ajratish hajmini kengaytirish;

-bank sohasida qo'shimcha imtiyoz va preferentsiyalar joriy qilish hisobiga tadbirkorlik sub'ektlariga bank xizmatlarini ko'rsatish borasida eng qulay shart-sharoitlarni yaratish;

-ijtimoiy sohani rivojlantirish, uy-joylar qurish va aholi yashash hududlarini obodonlashtirish, ta'lim va sog'liqni saqlash tizimini isloh qilishni moliyalashtirish, shu jumladan, "Sog'lom bola yili" Davlat dasturida bank tizimiga yuklatilgan vazifalarning sifatli ijro etilishini ta'minlash;

-mamlakat bank tizimi va tijorat banklari faoliyatining etakchi xalqaro reyting tashkilotlari yuqori reyting baholariga erishilishini ta'minlash va muntazam ravishda yangilab borish;

-xalqaro andozalar va tamoyillar hamda mamlakatimizda bozor munosabatlari rivojlanishining hozirgi holatidan kelib chiqqan holda moliya-bank sohasining qonunchilik bazasini yanada takomillashtirish bo'yicha vazifalarning sifatli ijro etilishini ta'minlashga qaratildi.

2014 yil davomida bank tizimida amalga oshirilgan izchil va aniq maqsadli chora-tadbirlar natijasida yuqorida sanab o'tilgan barcha yo'nalishlar bo'yicha ijobiy natijalarga erishildi. Bank tizimining moliyaviy barqarorligi va rivojlanishi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011 yil 7 yanvardagi PQ-1464-sonli Qarori bilan tasdiqlangan indikatorlar tizimiga asosan tahlil qilinganda, bank tizimining barcha ko'rsatkichlari «yuqori darajada»gi indikator baholariga muvofiq kelmoqda.

Jumladan, tijorat banklarining kapitallashuvini oshirish bo'yicha ko'rilgan chora-tadbirlar natijasida 2014 yil yakuni bo'yicha bank tizimida kapitalning etarlilik darajasi 23,8 foizni tashkil etdi. Bu esa, bank nazorati bo'yicha Bazel qo'mitasi tomonidan belgilangan xalqaro me'yordan deyarli 3 barobar yuqoridir.

Bank tizimi barqarorligining yana bir muhim ko'rsatkichi hisoblangan likvidlik darajasi 2014 yil yakuni bo'yicha 64,6 foizni yoki talab etiladigan minimal darajadan 2 barobardan ortiqni tashkil etdi. Banklar tomonidan aholiga xizmat ko'rsatish indikatorlari bo'yicha, ya'ni har 100 ming (katta yoshli) aholiga to'g'ri keladigan bank muassasalari soni 49,7 tani (30 tadan ko'pi "yuqori" ko'rsatkich hisoblanadi) tashkil etadi hamda mazkur ko'rsatkich bo'yicha O'zbekiston MDH davlatlari orasida peshqadam bo'lib turibdi. Bank muassasalarida jismoniy shaxslar tomonidan ochilgan, har 1000 ta katta yoshli aholiga to'g'ri keladigan bank hisobvaraqlari 1028 birlikni (1000 tadan ko'p "yuqori" hisoblanadi) tashkil qilib, mazkur ko'rsatkich ham «yuqori daraja»dagi bahoga mos keladi.

2015 yilning 1 yanvar holatiga respublikamizda faoliyat ko'rsatayotgan tijorat banklari soni 26 tani tashkil etib, ularning 3 tasi davlat tijorat banki, 10 tasi aktsiyadorlik tijorat banki, 8 tasi xususiy bank va 5 tasi chet el kapitali ishtirokidagi banklar hisoblanadi.

Shuningdek, mamlakatimizda xorijiy banklarning 6 ta vakolatxonasi o'z faoliyatini yuritmoqda, ular bilan respublikamiz tijorat banklari tomonidan keng qamrovli va o'zaro manfaatli hamkorlik aloqalari o'rnatilgan. Respublikamizning barcha hududlarida tijorat banklarining tarmoqlari yanada kengayib, 2015 yilning 1 yanvar holatiga banklarning filiallari soni 846 taga etdi. Bank muassasalarini aholi va ishlab chiqarish korxonalarini hududlariga yanada yaqinlashtirish, bank xizmatlaridan foydalanish sharoitlarini yanada qulaylashtirish, shu jumladan, mijozlarga kommunal va boshqa to'lovlarni to'lashlari uchun yanada qulayliklar yaratish maqsadida tashkil etilgan mini-bank va maxsus kassalar soni 2014 yil yakuni bo'yicha 4244 taga etdi, shundan 2198 tasi qishloq joylarda joylashgan.

2014 yilda bank tizimida moliya-bank xizmatlari ko'lamini zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llagan holda kengaytirishga ham alohida e'tibor qaratildi. Xususan, aholi va xo'jalik yurituvchi sub'ektlarga qulay va sifatli zamonaviy bank xizmatlarini ko'rsatish ko'lamini yanada

kengaytirish maqsadida bank hisobvaraqlarini masofadan boshqarish tizimlari (“Bank-mijoz”, “Internet-banking”, “Mobil-banking”, “SMS-banking” va boshqalar) ning respublika miqyosida joriy etilishini jadallashtirish bo’yicha maqsadli ko’rsatkichlar belgilanib, ularning to’liq bajarilishiga erishish borasida tegishli tadbirlar ko’rib borildi.

2015 yilning 1 yanvar holatiga bank hisobvaraqlarini masofadan boshqarish tizimlaridan foydalanuvchilar umumiy soni 534,8 mingtadan ortib, 2014 yil boshiga nisbatan 2 barobarga ko’paydi. Shundan, “Internet-banking” va “Bank-mijoz” dasturiy majmuasi xizmatlaridan foydalanuvchilar soni 62,2 mingtani tashkil etgan bo’lsa, “Mobil-banking” va “SMS-banking” xizmatlaridan foydalanuvchilar soni 472,6 mingtaga etdi. O’z navbatida, bank tizimida naqd pulsiz hisob-kitoblarning zamonaviy shakli - bank plastik kartochkalari muomalasini kengaytirish va takomillashtirishga alohida e’tibor qaratilishi natijasida, 2015 yil 1 yanvar holatiga ko’ra, muomalaga chiqarilgan bank plastik kartalari soni 2014 yilning boshiga nisbatan 2,4 mln. donaga ortib, 13,4 mln. donani hamda chakana savdo va pullik xizmat ko’rsatish sub’ektlariga o’rnatilgan to’lov terminallari soni 2014 yilning boshiga nisbatan 29,3 ming donaga ortib, 159 ming donani tashkil qildi.

Natijada 2014 yil davomida plastik kartalar orqali amalga oshirilgan to’lovlar hajmi 2013 yilga nisbatan 1,4 barobarga oshib, 22,8 trln. so’mni tashkil etdi. 2014 yilda bank tizimi infratuzilmasini yanada rivojlantirish borasida O’zbekiston Respublikasining “Garov reestri to’g’risida”gi Qonuni ijrosini ta’minlash va garov reestri tizimi faoliyatini yo’lga qo’yish bo’yicha tegishli chora-tadbirlar amalga oshirildi.

Jumladan, Markaziy bank qoshida “Garov reestri” davlat unitar korxonasi tashkil etildi. Shuningdek, Hukumat qarori bilan Garov reestrini yuritish tartibi to’g’risidagi Nizom tasdiqlandi va mazkur Nizomda garov reestrini shakllantirish va undan foydalanish shartlari, shu jumladan, garov reestriga ma’lumotlarni kiritish, ularni o’zgartirish va chiqarib tashlash hamda garov reestridan foydalanish shartlari belgilab qo’yildi.

“Garov reestri” dasturiy kompleksi ishlab chiqilib, “Garov reestri” davlat unitar korxonasi tomonidan foydalanishga qabul qilindi. “Garov reestri” korxonasi uchun www.garov.uz domen nomi rasmiylashtirildi va internet tarmog’ida ishga tushirildi. Umuman olganda, bank infratuzilmasining tobora kengayib va takomillashib borayotganligi, o’z navbatida, bank xizmatlari bozorida raqobat muhitining va ko’rsatilayotgan xizmatlar sifatining yanada yaxshilanishiga hamda aholining bank xizmatlaridan foydalanish darajasining oshishiga xizmat qilmoqda.

2014 yilda respublika bank tizimida O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010 yil 26 noyabrdagi PQ-1438-sonli Qarori bilan belgilangan 2011-2015 yillarda tijorat banklarining umumiy kapital hajmini qo’shimcha aksiyalarini chiqarish va joylashtirish orqali kamida 2,1 barobarga oshirish vazifasini bajarish yuzasidan ishlab chiqilgan chora-tadbirlar dasturini amalga oshirish davom ettirildi.

Xususan, 2014 yilda qo’shimcha aksiyalar va qarz qimmatli qog’ozlarini chiqarish va joylashtirish, aholi va xo’jalik sub’ektlarining bo’sh pul mablag’larini jalb qilish ko’lamlarini kengaytirish hamda boshqa vositalardan samarali foydalanish orqali tijorat banklarining umumiy kapitali hajmi 2013 yilga nisbatan 25 foizga oshib, 2015 yilning 1 yanvar holatiga ko’ra, 6,9 trln. so’mni tashkil etdi.

2014 yil davomida tijorat banklari tomonidan bank ustav kapitalini oshirish maqsadida 525,2 mlrd. so’mlik, shu jumladan, “O’zsanoatqurilishbank”ning 222,6 mlrd. so’mlik, “Agrobank”ning 30,0 mlrd. so’mlik, “Asaka” bankning 68,8 mlrd. so’mlik, “Ipoteka-bank”ning 43,2 mlrd. so’mlik “Orient Finans” bankning 19,5 mlrd. so’mlik, “Asia Alliance Bank”ning 23,7 mlrd. so’mlik va “Qishloq qurilish bank”ning 33,3 mlrd. so’mlik aksiyalari investorlar orasida joylashtirilib, shundan 209,2 mlrd. so’mlik aksiyalar nodavlat sektor sub’ektlariga sotildi.

Jumladan, O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2014 yil 23 maydagi “O’zbekiston sanoat-qurilish bankining ustav kapitalini oshirish yuzasidan

qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-2179-sonli Qaroriga muvofiq "O'zsanoatqurilishbank" ustav kapitali 2015 yilning 1 yanvar holatiga 541,2 mlrd. so'mga (223,4 mln. AQSh dollari ekvivalentida) etkazildi.

Bugungi kunda 18 ta tijorat banklarining aksiyalari "Toshkent" fond birjasi listingiga kiritilgan bo'lib, ushbu banklarning qimmatli qog'ozlari muntazam ravishda birjada kotirovka qilinib, ommaviy axborot vositalarida e'lon qilib borilmoqda.

Banklar resurs bazasini kengaytirishning yana bir muhim yo'nalishi sifatida aholi va xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning bo'sh pul mablag'larini banklardagi depozitlarga jalb qilishga alohida e'tibor qaratilmoqda.


Qayd etish lozimki, tijorat banklari tomonidan aholining talabi va ehtiyojidan kelib chiqqan holda yangi omonat turlarini joriy etish hamda ushbu yo'nalishda ko'rsatilayotgan xizmatlar sifatini yanada yaxshilash bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirib kelinmoqda.

O'z navbatida, aholi real daromadlarining o'sib borayotganligi, banklardagi omonatlarning davlat tomonidan to'liq kafolatlanganligi, mijozlarning birinchi talabiga ko'ra omonatlar qaytarilishining ta'minlanganligi hamda bank omonatlaridan olingan foizli daromadlarning soliqdan ozod qilinganligi aholining tijorat banklaridagi omonatlari hajmining barqaror oshib borishini ta'minlamoqda.

2015 yilning 1 yanvar holatiga ko'ra, tijorat banklaridagi aholi va xo'jalik yurituvchi sub'ektlari depozitlarining umumiy hajmi 2013 yilga nisbatan 30,5 foizga oshib, 28,5 trln. so'mga etdi. Bundan tashqari, banklarning resurs bazasini mustahkamlash, aholi va xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning bo'sh pul mablag'larini jalb qilish maqsadida tijorat banklari tomonidan uzoq muddatli obligatsiyalar va depozit sertifikatlarining chiqarilishiga alohida e'tibor qaratilmoqda.


Tijorat banklarining muomalaga chiqarilgan qarz qimmatli qog'ozlari hajmi 2015 yilning 1 yanvar holatiga 1,0 trln. so'mni, jumladan, muomaladagi

uzoq muddatli obligatsiyalar 310,2 mlrd. so'mni va depozit sertifikatlari miqdori 689,7 mlrd. so'mni tashkil etmoqda.



12-diagramma. Tijorat banklarining jami aktivlari o'zgarishi dinamikasi (mlrd.so'm).²⁵

Xususan, tijorat banklarining jami aktivlari hajmi 2014 yilda 2013 yilga nisbatan 28,2 foizga oshib, 2015 yilning 1 yanvar holatiga ko'ra, 56,2 trln. so'mga etdi. Shu jumladan, 2014 yilda tijorat banklarining kredit qo'yilmalari umumiy hajmi 2013 yilga nisbatan 31,2 foizga o'sib, 2015 yilning 1 yanvar holatiga ko'ra, 34,8 trln. so'mni tashkil etdi .




13-diagramma. Tijorat banklarining qo'yilmalari dinamikasi (mlrd.so'm).²⁶

²⁵ www.bankir.ru

²⁶ www.bankir.ru

Respublika bank tizimida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yil 28 noyabrdagi "Iqtisodiyotning real sektori korxonalarini qo'llab-quvvatlash, ularning barqaror ishlashini ta'minlash va eksport salohiyatini oshirish chora-tadbirlari Dasturi to'g'risida" gi PF-4058-sonli Farmoni boshqa farmon va qarorlariga muvofiq, iqtisodiyotning real sektorini moliyaviy qo'llab-quvvatlash hajmlarini yanada oshirish, shu jumladan, yangi ishlab chiqarish korxonalarini barpo etish, mavjud korxonalarni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik jihatdan yangilash bo'yicha investitsion loyihalarni moliyalashtirish jarayonlarida banklarning ishtirokini yanada kengaytirishga alohida e'tibor berilmoqda.

2014 yil mobaynida korxonalarni modernizatsiya qilish, texnologik va texnik jihatdan qayta jihozlash maqsadlariga tijorat banklari tomonidan jami 8,5 trln. so'm yoki 2013 yilga nisbatan 1,2 barobar ko'p investitsion kreditlar ajratildi.



14-diagramma. Investitsion kreditlar dinamikasi (mlrd.so'm).²⁷

Bunda banklarning investitsion kreditlari ustuvor ravishda "2011-2015 yillarda sanoatni rivojlantirish", "2014 yilgi Investitsiya dasturi" hamda tarmoqlarni modernizatsiya qilish, mahalliyashtirish va hududlarni rivojlantirish Davlat dasturlariga kiritilgan loyihalarni moliyaviy qo'llab -

²⁷ www.bankir.ru

quvvatlashga, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan ishlab chiqarish texnologiyalarini sotib olishga yo'naltirilmoqda.

Jumladan, 2014 yil davomida tijorat banklari tomonidan:

-O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009 yil 26 yanvardagi «Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishni kengaytirish va ichki bozorni to'ldirish yuzasidan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi PQ-1047-sonli Qarorini ijro etish doirasida oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqaruvchi mahalliy korxonalariga 1,6 trln. so'm yoki 2013 yilga nisbatan 1,3 barobar ko'p;

-O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009 yil 28 yanvardagi «Mahalliy nooziq - ovqat iste'mol tovarlari ishlab chiqarish kengaytirilishini rag'batlantirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida» gi PQ-1050-sonli Qaroriga muvofiq, nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqaruvchi korxonalariga 1,7 trln. so'm miqdorida yoki 2013 yilga nisbatan 1,3 barobar ko'p kreditlar ajratildi.

Shuningdek, «Sog'lom bola yili» Davlat dasturi doirasida 2014 yil davomida jami 3,8 trln. so'm, shu jumladan, tadbirkor ayollarni moliyaviy qo'llab - quvvatlashga 960,2 mlrd. so'm, yosh oilalarga uy-joy sotib olish, qurish va rekonstruktsiya qilish uchun 234,8 mlrd. so'm hamda ayollarning ijtimoiy-maishiy sharoitlarini yaxshilash va kundalik uy mehnatini engillashtirish maqsadida uy-ro'zg'or buyumlarini sotib olishga 57,3 mlrd. so'm miqdorida imtiyozli kredit mablag'lari ajratildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011 yil 11 martdagi «Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlariga kredit berishni ko'paytirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi PQ-1501-sonli Qarori va 2012 yil 18 iyuldagi «Ishbilarmonlik muhitini yanada tubdan yaxshilash va tadbirkorlikka yanada keng erkinlik berish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF-4455-sonli Farmoni hamda boshqa qarorlariga muvofiq, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarini kreditlash hajmini yanada oshirish, kreditlash shartlarini soddalashtirish, ularga bank xizmatlaridan foydalanish borasida

qo'shimcha imtiyoz va qulayliklar yaratish bo'yicha chora-tadbirlar izchillik bilan amalga oshirib kelinmoqda.

Jumladan, 2014 yil davomida:


-kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlariga kredit ajratish uchun arizalarni ko'rib chiqish muddati 3 bank kunigacha qisqartirildi;

-bank hisobvarag'ini ochish, davlat byudjetiga ularning hisobvaraqlaridan soliq va boshqa majburiy to'lovlarni to'lashda bank xizmati uchun to'lov undirish va notarial tasdiqlangan imzolar namunasini olish bekor qilindi;

-hisob varaqlarga elektron ko'rinishda xizmat ko'rsatish uchun olinadigan to'lov miqdori 20 foizga qisqartirilib, moliya-bank sohasida 8 turdagi ruxsat berish tamoyillari bekor qilindi;

-investitsion loyihalarni moliyalashtirish uchun kreditlar to'lash muddatini uzaytirish huquqisiz 5 yilgacha muddatga berilishi bo'yicha me'yor bekor qilinib, investitsiya loyihalarini moliyalashtirish muddati tijorat banking Kengashi tomonidan tasdiqlanadigan "Bankning kredit siyosati"da aks ettiriladigan bo'ldi;

-tijorat banklariga kichik tadbirkorlik sub'ektlariga kredit berishda kreditning umumiy summasida qarz oluvchining garov ta'minotini rasmiylashtirish bilan bog'liq xarajatlarni hisobga olish huquqi berildi.



15-diagramma. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlariga ajratilgan kreditlar dinamikasi (mlrd.so'm).²⁸

²⁸ www.bankir.ru

Amalga oshirilgan tadbirlar natijasida 2014 yil davomida tijorat banklari tomonidan mazkur soha sub'ektlariga barcha moliyalash manbalari hisobidan ajratilgan kreditlari hajmi 2013 yilga nisbatan 1,3 barobarga oshib, qariyb 9,2 trln. so'mni tashkil etdi. Xususan:

-ajratilgan mikro kreditlar 1,9 trln. so'mni tashkil etib, bu ko'rsatkich ham 2013 yilga nisbatan 1,4 barobarga o'sdi;

-xalqaro moliyaviy institutlar va xorijiy mamlakatlar hukumatlarining kredit liniyalari, grantlari hisobidan 157,8 mln. AQSh dollari miqdorida kredit mablag'lari ajratildi yoki belgilangan prognoz ko'rsatkichi 121,4 foizga bajarildi;

-imtiyozli kredit berish maxsus jamg'armasi hisobidan ustuvor ravishda olis va borish qiyin bo'lgan tumanlarda, shuningdek, ortiqcha mehnat resurslariga ega bo'lgan tuman va shaharlarda joylashgan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlariga 61 mlrd. so'm miqdorida imtiyozli kredit mablag'lari ajratildi.

Shuningdek, kasb-hunar kollejlari bitiruvchilarini kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohalariga keng jalb qilish, ularning o'z bizneslarini yo'lga qo'yishlari, tadbirkorlik faoliyati bilan bog'liq loyihalarini moliyalashtirishga 201 mlrd. so'm (2013 yilga nisbatan 1,4 barobarga ko'p) kredit mablag'lari yo'naltirildi.

Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011 yil 6 iyundagi 175-sonli qaroriga asosan O'zbekiston banklari assotsiatsiyasi huzurida tashkil etilgan Investitsiya loyihalari bo'yicha loyiha hujjatlarini tayyorlashni moliyalashtirish jamg'armasi tomonidan 2014 yilda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan taqdim etilgan loyihalarning 33 tasi ma'qullanib, mazkur investitsiya loyihalari bo'yicha tegishli hujjatlar ishlab chiqarilishi moliyalashtirildi. Shuningdek, tadbirkorlik sub'ektlarining 105 ta loyihalari doirasida tijorat banklari tomonidan 49,3 mlrd. so'm miqdorida kreditlar ajratildi. Ta'kidlash lozimki, mamlakatimizda bank tizimida biznesni yuritish shart-sharoitlarini engillashtirish va arzonlashtirish hamda tadbirkorlik

sub'ektlarini moliyaviy qo'llab-quvvatlashni yanada kengaytirish borasida amalga oshirilayotgan ishlar xalqaro moliyaviy tashkilotlar tomonidan yuqori baholanib kelinmoqda.

Jahon banki va Xalqaro moliya korporatsiyasining 2014 yilning oktyabr oyida e'lon qilingan tadbirkorlik faoliyatini yuritish shart-sharoitlari bo'yicha "Biznesni yuritish – 2015" navbatdagi yillik hisobotida biznesni yuritish shart-sharoitlari bo'yicha respublikamizning reyting ko'rsatkichi 2014 yilning o'zida 8 pog'onaga ko'tarildi. Shu jumladan, kreditlash shartlari bo'yicha so'nggi ikki yilda mamlakatimizning reytingi 50 pog'onaga, ya'ni 154-o'rindan 104-o'ringacha ko'tarildi. Bunda ushbu ko'rsatkich bo'yicha ko'tarilish 2013 yilda 24 pog'onani, 2014 yilda esa 26 pog'onani tashkil etdi.

Shuningdek, "Kredit axboroti almashinuvi indeksi" bo'yicha O'zbekiston bank tizimi mavjud 8 balli tizimda 7 ballga baholandi va bu ko'rsatkich Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkiloti (OECD)ga a'zo davlatlari bo'yicha o'rtacha ko'rsatkichdan yuqoridir.

2014 yilda bank tizimi barqarorligini ta'minlash maqsadida bank nazoratini xalqaro andozalarga muvofiq holda takomillashtirish ishlari davom ettirildi. Bank nazorati sohasidagi islohotlar banklarning kreditorlari, omonatchilari va mijozlari manfaatlarining himoyalalanish darajasini yanada oshirish, banklarning o'rnatilgan iqtisodiy normativlar va qonunchilik talablariga to'liq rioya qilishlariga erishish tadbirlari orqali amalga oshirildi.

Xususan, tijorat banklarining faoliyatini tartibga solish va nazorat qilish mexanizmlarini yanada takomillashtirish maqsadida:

-“Tijorat banklarining moliyaviy holati va barqarorligini baholash hamda ularning natijalarini ko'rib chiqish Tartibi” va “Aktivlar sifatini tasniflash, tijorat banklari tomonidan ular bo'yicha ehtimoliy yo'qotishlarni qoplash uchun zaxiralarni shakllantirish va undan foydalanish Tartibi” ga asosan, tijorat banklarining kapital etariligi, likvidiligi, aktivlar sifati va diversifikatsiyasi hamda bank Boshqaruvi organlarining faoliyati samaradorligi;

-bank operatsiyalarini amalga oshirishda operatsion va bozor tavakkalchiliklarini baholash bo'yicha "Tijorat banklarining bank tavakkalchiliklarini boshqarishiga nisbatan qo'yiladigan talablar to'g'risida" gi Nizomga muvofiq, har bir bankda bevosita bank Kengashiga bo'ysunuvchi Tavakkalchiliklarni nazorat qilish qo'mitalarining faoliyati doimiy ravishda monitoring qilib borildi.

Xalqaro valyuta fondi ekspertlari tomonidan 2014 yilning 2 – 12 sentyabr kunlari respublikamizga navbatdagi tashrif chog'ida tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini baholashning nazorat tizimini va huquqiy asoslarini yanada takomillashtirish yuzasidan bildirilgan tavsiyalar asosida Markaziy bankning "Tijorat banklarining kapital etarliligi bo'yicha talablar to'g'risida"gi va "Tijorat bankining likvidligini boshqarish bo'yicha talablar to'g'risida"gi Nizomlariga tegishli o'zgartirish va qo'shimchalar kiritildi.

3.3.O'zbekiston respublikasi tijorat banklari kredit siyosatini boshqarishni takomillashtirish istiqbollari

2015 yilda bank tizimini isloh qilish va yanada rivojlantirishda asosiy e'tibor O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010 yil 26 noyabrdagi PQ-1438-sonli Qarori bilan tasdiqlangan "2011 - 2015 yillarda respublika moliya-bank tizimini yanada isloh qilish va barqarorligini oshirish hamda yuqori xalqaro reyting ko'rsatkichlariga erishishning ustuvor yo'nalishlari bo'yicha kompleks chora-tadbirlar" dasturida hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Vazirlar Mahkamasining bank tizimiga oid boshqa qarorlarida belgilab berilgan vazifalarning sifatli bajarilishini ta'minlashga qaratiladi. Shuningdek, 2015 yil uchun bank tizimini isloh qilish va rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarini ishlab chiqishda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining 2014 yil 28 avgustdagi "O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvi raisining O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2013 yildagi faoliyati to'g'risidagi hisoboti haqida"gi SQ-440–II-sonli Qarorida bank tizimi oldiga qo'yilgan ustuvor vazifa va topshiriqlarning ijrosi inobatga olingan.

Xususan, ushbu vazifalar doirasida 2015 yilda respublika bank tizimining barqarorligini yanada oshirish, bank nazorati tizimini Bazal qo'mitasining yangi tavsiyalari asosida takomillashtirish, tijorat banklarining resurs bazasini yanada mustahkamlash, ularning investitsion faolligini kuchaytirish hamda yangi ishlab chiqarish korxonalarini barpo etish, mavjud korxonalarni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik jihatdan yangilash bo'yicha investitsion loyihalarni moliyalashtirishda banklarning ishtirokini yanada kengaytirish kabi muhim chora-tadbirlarni davom ettirish rejalashtirilmoqda.

Iqtisodiyotning real sektorini moliyaviy qo'llab-quvvatlash hajmini yanada oshirish, shu jumladan, tijorat banklarining investitsion faolligini kuchaytirish hamda investitsion loyihalarni moliyalashtirishdagi ishtirokini yanada kengaytirish. 2015 yilda tijorat banklari tomonidan iqtisodiyotning real sektori korxonalariga ajratiladigan kredit qo'yilmalari umumiy hajmining 2014 yilga nisbatan 25 foizdan ziyod o'sishi prognoz qilinmoqda.

Xususan, 2015 yilda yangi ishlab chiqarish korxonalarini barpo qilish, mavjud korxonalarni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik jihatdan qayta jihozlash hamda qishloq joylarda zamonaviy loyihalar bo'yicha yakka tartibdagi yangi turar-joylarni barpo etish maqsadlariga tijorat banklari tomonidan barcha manbalar hisobidan 2014 yilga nisbatan 1,2 barobarga ko'p investitsion kreditlar ajratilishi rejalashtirilmoqda.

Shu bilan birga, iqtisodiyotni kreditlash hajmini kengaytirish natijasida kelib chiqishi mumkin bo'lgan kredit xatarlarining oldini olish maqsadida tijorat banklari tomonidan aktivlarni diversifikatsiya qilish, shu jumladan, kredit portfelini yaxshilash, tavakkalchiliklarni samarali boshqarishga qaratilgan zarur chora-tadbirlar muntazam ravishda amalga oshirib boriladi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash maqsadlariga 2015 yilda tijorat banklari tomonidan 2014 yilga nisbatan 1,3 barobar ko'p kreditlar ajratilishi **rejalashtirilmoqda**. Bunda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarini moliyaviy qo'llab-quvvatlashning quyidagi vositalaridan:

- kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarining, fermer xo'jaliklarining hamda kasb-hunar kollejlari bitiruvchilarining, ayniqsa, qishloq joylarda ish o'rinlarini tashkil etishga qaratilgan biznes loyihalarni moliyalashtirishga yo'naltirilgan kredit qo'yilmalarining hajmini oshirish;

-uzoq va borish qiyin bo'lgan hududlarda joylashgan, shuningdek, ortiqcha mehnat resurslariga ega bo'lgan tuman va shaharlarda joylashgan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlariga, dehqon va fermer xo'jaliklariga ustuvor ravishda Tijorat banklarining imtiyozli kreditlash jamg'armasi mablag'lari hisobidan kreditlash hajmlarini yanada kengaytirish;

2015 yilda nobank kredit tashkilotlari tizimini rivojlantirish va barqororligini oshirishga alohida e'tibor qaratiladi hamda ushbu yo'nalishda nobank kredit tashkilotlari faoliyatini tartibga solish va nazorat qilish tizimini yanada takomillashtirish yuzasidan yangi me'yoriy hujjatlarni ishlab chiqish, shuningdek, amaldagi me'yoriy hujjatlarga tegishli o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish rejalashtirilmoqda.

Respublikamizda garov reestri tizimini yaratish va uning to'laqonli faoliyat yuritishini ta'minlash borasida amalga oshirilgan ishlarning davomi sifatida 2015 yilda:

-garov reestrida garov ta'minoti vositasi sifatida qo'yilgan mol-mulklarga nisbatan kreditorlarning huquqlari to'g'risidagi va boshqa yozuvlarni o'z ichiga olgan yagona axborot bazasini shakllantirish va uning tegishli ma'lumotlar bilan muntazam yangilab borilishini ta'minlash;

- garov reestrini yurituvchi tashkilot bilan tuzilgan shartnoma asosida garov reestriga yozuv kiritish huquqiga ega bo'lgan kreditor va qarzdor sifatida qatnashayotgan yuridik va jismoniy shaxslarning garov reestriga ma'lumotlarni kiritish va undan tezkor foydalanish borasidagi imkoniyatlarini oshirib borish;

-garov reestrining uning ma'lumotlaridan foydalanuvchilar bilan aloqa mexanizmlarini takomillashtirish va texnik imkoniyatlarini oshirib borish borasidagi chora-tadbirlar amalga oshirilishi rejalashtirilmoqda.

2015 yilda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi muhokamasiga kiritilgan O'zbekiston Respublikasining "Elektron tijorat to'g'risida" gi Qonuni yangi tahrirdagi loyihasining Oliy Majlis palatalarida ko'rib chiqilishi ko'zda tutilmoqda. Shuningdek, moliya-bank tizimi faoliyatining qonunchilik bazasini takomillashtirish chora-tadbirlari doirasida:

-Xalqaro valyuta fondi va Jahon banki ekspertlari tavsiyalari asosida Markaziy bankning bank nazoratiga oid me'yoriy hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish va zarur hollarda yangi me'yoriy hujjatlarni ishlab chiqish va tasdiqlash;

-operatsion, kredit, valyuta risklari hamda depozit operatsiyalari bilan bog'liq risklarni oldindan aniqlash va ularni bartaraf etish borasidagi me'yoriy talablarni yanada takomillashtirish;

-moliyaviy hisobotlarni va ularni e'lon qilish tizimini xalqaro andozalarga muvofiqlashtirish borasidagi talablarni yanada kuchaytirish borasidagi boshqa bir qator ishlar amalga oshiriladi.

XULOSA

Tijorat banklarining kapitalini moliyaviy barqaror manbalar hisobidan shakllantirish va ularni samarali joylashtirishga erishish banklarning moliyaviy holatini mustahkamlash, aholining bank tizimiga bo'lgan ishonchini yanada oshirish xamda milliy iqtisodiyotning rivojlanishiga puxta zamin tayyorlaydi. Tijorat banklari faoliyatining barqarorligi va raqobatbardoshligi ularning resurslarini tug'ri tashkil qilish va ulardan oqilona foydalanishga bog'liq. Shuni ta'kidlash lozimki, tijorat banklarining depozit va kredit portfelini tashkil qilish, boshqarish, uni diversifikatsiya qilish sohasida qator echilmagan muammolar mavjud.

Mavzuni o'rganish jarayonida tijorat banklarining kreditlash amaliyotida kredit siyosatining roli qanchalik muximligi, agar kredit siyosati mavjud iqtisodiy vaziyatni xamda kreditlash amaliyotida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan risklarni inobatga olinmasdan ishlab chiqilsa va amaliyotga tadbiq etilsa, bu bankning moliyaviy axvolining yomonlashuvi va buning natijasida nafaqat bank tizimining balki umumiy iqtisodiyotning xattoki inqiroz darajasiga olib kelishi mumkin bo'lgan faktorlardan biri ekanligi xaqida umumiy xulosaga ega bo'ldik.

O'z vaqtida qaytarilmagan kreditlarning qaytarish choralari izlanmasa va tezlik bilan chora tadbirlar ko'rilmasa, u xolda shubxali va umidsiz kreditlar toifasiga mansub bo'lgan kreditlarning xajmi oshib boraveradi. Buning natijasida bankning ustav kapitaliga, depozidga olingan mablag'larga, omonatchilarga mijozlarga katta zarar etkaziladi va bank o'z majburiyatlarini bajarolmasdan bankrotlik darajasiga tushib qolishi mumkin. Bunga yo'l qo'ymaslik uchun bank xodimlari tomonidan berilgan kreditlar nazoratini o'z vaqtida olib borish zarur. Kredit portfelidagi har bir kreditlar bo'yicha o'z vaqtida nazorat va nazorat natijasida muammoli kreditlarni qaytarish yoki konsultativ ko'rinishdagi ishlari olib borilsa, o'ylaymizki kredit portfeli riskka tortilmaydi. Kredit xodimlari kreditlar muammoli kreditlarga aylanmasdan ularni ta'minoti garovga olingan mulkni sotuvga qo'yish yoki kreditni kafolatlagan shaxslardan o'z majburiyatlarini bajarishlarini talab etishlari lozim. Bank tomonidan kredit

portfelini muntazam ravishda va aniq ko'rsatkichlar asosida tasniflab borilishi kredit portfelining xolati yaxshilanishi va bank daromadini oshishiga zamin yaratadi.

Ma'lumki, bozor iqtisodi keng rivojlangan mamlakatlarda tijorat banklarning kredit siyosatiga, ularning kredit portfeli va uning sifatiga, undan foydalanish darajasiga katta e'tibor beriladi, chunki kredit portfelining tug'ri tashkil qilinishi ularning samarali faoliyati ko'rsatayotganidan dalolat beradi. Banklar faoliyatida kredit operatsiyalari asosiy o'rinni egallagani uchun ularning kredit portfelini tug'ri tashkil qilish, banklarning samarali va barqaror faoliyat ko'rsatishi uchun imkoniyat yaratib beruvchi asosiy omillardan biri xisoblanadi.

Tijorat banklari daromadini shakllantirish muammolari orasida shu banklarning daromadlari bilan bog'liq bo'lgan masalalar markaziy o'rinda turadi. Shu sababli, tijorat banklari faoliyatida foydaning shakllanish jarayonini tahlil qilishga kirishishdan oldin tijorat banklari doirasida ular daromadining iqtisodiy mohiyati va shakllanish tartibi bilan tanishib chiqish maqsadga muvofiqdir. Ilmiy-nazariy adabiyotlarda shu narsa ko'rsatiladiki, banklar oladigan daromadlar, avvalo, berilgan kreditlar uchun olinadigan foiz stavkasining darajasiga bog'liq.

Bozor iqtisodiyotida kreditdan foydalanish uchun to'lanadigan foiz darajasi iqtisodiy jihatdan belgilangan chegarasiga ega. Ijtimoiy ishlab chiqarishning o'rtacha tarmoq rentabellik darajasi foiz stavkalarining yuqori chegarasini belgilab beruvchi mezondir. Shu narsadan kelib chiqqan holda kredit olgan xo'jalik yurituvchi sub'ekt uchun ushbu darajadan ortiqcha foizni to'lash maqsadga muvofiq emasdir. Kredit uchun olinadigan foizning quyi chegarasi esa bank tizimining ob'ektiv zaruriy xarajatlar normasi bilan belgilanadi.

Kredit operatsiyalarini olib borishda yo'l qo'yilgan kamchiliklar banklar daromadining kamayishiga, ba'zi xollarda ularning sinib ketishiga olib kelishi mumkin. Shu sababli banklarning kredit portfeli va uning sifatini nazorat qilib borish tijorat banklarining samarali faoliyatining garovidir. Uning kredit

portfelini oqilona boshqarish esa kredit risklarini kamaytirishning omili hisoblanadi.

Bitiruv malakaviy ishda keltirilgan xulosa va tavsiyalar tijorat banklarida kredit siyosati va uni bankni boshqarish faoliyatida yaxlit samara keltirishga qaratilgan bo'lib, ularni banklar amaliyotida qo'llash, tijorat banklarida kredit portfelining daromadlilikini oshirish, tijorat banklarining kredit siyosatini tuzish va amalga oshirish, tijorat banklarining kredit portfelining sifatini tahlil qilish, banklar tomonidan beriladigan kreditlarning samaradorligini oshirishda katta ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

I.O'zbekiston Respublikasi Qonunlari.O'zbekiston Respublikasi Prezident farmonlari va qarorlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning asarlari

- 1.O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi. T.: O'zbekiston, 2014.
- 2.O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tug'risida"gi qonuni. - T.: O'zbekiston, 1995.
- 3.O'zbekiston Respublikasining "Banklar va bank faoliyati tug'risida"gi qonuni. - T.: O'zbekiston, 1996.
- 4.O'zbekiston Respublikasining "Valyutani tartibga solish tug'risida"gi qonuni. – T.: O'zbekiston, 2003.
- 5.O'zbekiston Respublikasining "Fuqarolarning banklardagi omonatlarini himoyalash kafolatlari to'g'risida"gi qonuni. - T.: O'zbekiston, 2002.
- 6.O'zbekiston Respublikasining "Investitsiya faoliyati to'g'risida"gi qonun, T.: "O'zbekiston", 1998.
- 7.O'zbekiston Respublikasining "Chet El investitsiyasi to'g'risida"gi qonun, T.: "O'zbekiston", 1998.
- 8.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 26.11.2010 y. PQ-1438 –son "2011-2015 yillarda respublika moliya-bank tizimini yanada isloh qilish va barqarorligini oshirish hamda yuqori xalqaro reyting ko'rsatkichlariga erishishning ustuvor yo'nalishlari to'g'risida"gi qarori. // Xalq so'zi, 2010 yil 27 noyabr.
- 9.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 12.07.2007 y. PQ-670-son "Banklarning kapitallashuvini yanada oshirish va iqtisodiyotni modernizatsiyalashdagi investitsiya jarayonlarida ularning ishtirokini faollashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori // Xalq so'zi, 2007 yil 13 iyul.
- 10.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005 yil 15 apreldagi "Bank tizimini yanada isloh qilish va erkinlashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori. // Xalq so'zi, 2005 yil 16 aprel.

11. “Bank tizimining moliyaviy barkarorligini yanada oshirish va investitsiyaviy faolligini kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori 06.04.2010 y. PK-1317-son.

12. Tijorat banklari depozitlariga aholi va xo'jalik sub'ektlari bo'sh pul mablag'larini jalb etishni yanada rag'batlantirish qo'shimcha chora- tadbirlari to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 06.04.2009 y. PK-1090-son Qarori.

13. Tijorat banklarining investitsiya loyihalarini moliyalashtirishga yo'naltiriladigan uzoq muddatli kreditlari ulushini ko'paytirishni rag'batlantirish borasidagi ko'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.07.2009 y. PK-1166-sonli Qarori.

14. Karimov I.A. 2013 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari hamda 2014 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruza. 2014 yil.

15. Karimov I.A. 2012 yil Vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko'taradigan yil bo'ladi. T.: O'zbekiston, 2012.

16. Karimov I.A. Yangilanish va barqaror taraqqiyot yo'lidan yanada izchil xarakter qilish, halkimiz uchun farovon turmush sharoiti yaratish - asosiy vazifamizdir - Xalq so'zi, 2007 yil, 13 fevral. 31-son.

17. Karimov I.A. Erishgan yutuqlarni mustahkamlab yangi marralar sari izchil xarakter qilishimiz lozim. //Xalq so'zi gazetasi, 2006 yil 11 fevral.

18. Karimov. I.A. Bank tizimi, pul muomalasi, kredit, investitsiya va moliyaviy barqarorlik to'g'risida. – T.: O'zbekiston, 2005.

19. Karimov I.A. “2012-yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari hamda 2013-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlari”ga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi. Xalq so'zi. 2013 yil, 19-yanvar.

20. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning 2012 yilning asosiy yakunlari va 2013 yilda O'zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy

rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining majlisidagi "Bosh maqsadimiz-keng ko'lamli islohotlar va modernizatsiya yo'lini qat'iyat bilan davom ettirish" mavzusidagi ma'ruzasini o'rganish bo'yicha o'quv qo'llanma.T.: "OQITUVCHI". 2013 yil.

21.Karimov I.A. "2015-yilda iqtisodiyotimizda tub tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish, modernizatsiya va diversifikatsiya jarayonlarini izchil davom ettirish hisobidan xususiy mulk va xususiy tadbirkorlikka keng yo'l ochib berish -ustuvor vazifamizdir" mavzusidagi bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi. Xalq so'zi. 2015 yil, 17-yanvar.

II. Asosiy va qo'shimcha adabiyotlar

1. Банковское законодательство: Учебник / Под ред. Е.Ф. Жукова. М.: ЮНИТИ, 2006. - 300 с.

2. Банки и банковские операции: Учебник / Под ред. Е.Ф. Жукова. – М.: Банки и биржи, ЮНИТИ, 2007. - 330 с.

3. Банковские операции: Учетно-ссудные операции и агентские услуги банков: Учебное пособие. – Ч. 2 / Под ред. О.И. Лаврушина. – М.: Инфра-М, 2007. - 500 с.

4. Банковское дело: учебник/ под ред. д-ра экон. наук, проф. Г.Г. Коробовой. – изд. с.изм. – М. : Экономист, 2006. –766 с.

5. Банковское дело: учебник / О.И. Лаврушин, И.Д. Мамонова, Н.И.Валенцева и др.;. - 7-е изд; перераб. и доп.- М.: КНОРУС, 2008.- С.577;

6. Деньги, Кредит, Банки./ О.И. Лаврушина. - Б.М.: М.:КНОРУС, 2005. – 558 с.

7. Жарковская Е.П. Банковское дело: учебник для студентов вузов, обучающихся по специальности "Финансы и кредит"/ Е.П. Жарковская. – 6-е издание, испр. – М.: Издательство "Омега-Л", 2008. – 476 с.

8. Липсиц И.В. Ценообразование и маркетинг в коммерческом банке. М.: Экономист, 2013. - 315 с.

9. Львов Ю.И. , Букато В.И. Банки и банковские операции в России / Под ред. М.Х. Лapidуса. – М.: Финансы и статистика, 2012. - 600 с.
10. Mamatov V., Xo'jamqulov D., Nurbekov O. "Investitsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish". T.: "Iqtisod-Moliya", 2014.-607 bet.
11. Макарова Г.П. Система банковского маркетинга: Учебное пособие. – М.: Финстатинформ, 2013. - 300 с.
12. Молчанов А.В. Коммерческий банк в современной России: теория и практика. – М.: Финансы и статистика, 2004. - 500 с.
13. Mukherjee D.D. Credit appraisal, risk analysis and decion making. – New Delhi. 2010. – 772 p.
14. Ольшанский А.И. Банковское кредитование / Российский и зарубежный опыт. М., РДЛ, 2010. - 650 с.
15. Сидельникова Л.Б. Аудит коммерческого банка. – М.: Буквица, 2012. – 120 с.
16. Синюков В.Д. О возможных путях развития региональной банковской системы / Деньги и кредит. 2010. - 430 с.
17. Тавасиев. А.М. Основы банковского дела: учебное пособие для вузов. М.: Маркет ДС, 2010. - 568 с.
18. Тосунян Г.А. Банковское дело в России: опыт, проблемы, перспективы. М.: Наука, 2012. - 425 с.
19. Усоскин В.М. Современный коммерческий банк: Управление и операции. – М., 2012. - 285 с.
20. Ширинская Е.Б. Операции коммерческих банков: российский и зарубежный опыт. – 2-е изд., перераб. и доп. – М.: финансы и статистика, 2012. - 540 с.
21. Abdullaeva Sh.Z. Bank risklari sharoitida tijorat banklari kredit portfelini diversifikatsiyalash. I.f.d. ilm. dar. ol. uchun yoz. diss. avtoref. – Toshkent, 2000. – 33 b.
22. Berdiyarov B.T. Tijorat banklari aktivlarining daromadliligi. I.f.n. ilm. dar. ol. uchun yoz. diss. avtoref. – Toshkent, 2002. – 17 b.

23. Bobakulov T.I. Milliy valyutaning barqarorligini ta'minlash: muammolar va echimlar. I.f.d. ilm. dar. ol. uchun yoz. diss. avtoref. – Toshkent: – 2008. – 36 b.

24. Boymuratov A.D. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini tijorat banklari tomonidan kreditlash amaliyotini takomillashtirish yo'nalish-lari. I.f.n. ilm. dar.ol.uchun yoz. diss. avtoref.–Toshkent, 2008. – 16 b. 25. Saidov D.A. Tijorat banklarining qisqa muddatli kreditlash amaliyoti va uni takomillashtirish yo'llari. I.f.n. ilm. dar.ol.uchun yoz. diss. avtoref.–Toshkent, 2008. – 16 b.

25. Тухсанов Х.А. Процентная политика банков и вопросы регулирования в условиях рыночной экономики. Автореф. дисс. канд. экон. наук. – Ташкент, 2005. – 20 с.

26. Афанасьева О. Проблемы банковского кредитования реального сектора экономики // Банковское дело. – Москва, 2012. – №4. – 34-37 с.

27. Лаврушин О.И. Особенности использования кредита в рыночной экономике // Банковское дело. – Москва, 2010.– №6. – 2-8 с.

28. Милюков А.И. Кредитная поддержка производства – центральная проблема // Деньги и кредит. – Москва, 2011.– №4. – 9-11 с.

29. Потребительский кредиты вывели на чистый процент, / Коммерсант. №2 (3578), 2007. - 18-19 с.

30. Сагитдинов М.Ш., Марданов Р.Х., Коцегулова И.Р. О методах определения экономически обоснованной цены кредита // Деньги и кредит.-1997. - №12. – 46-55 с.

31. Отчетная информация рейтингового агентства “Ahbor-reyting” 2013г.

III. Internet saytlari

1. www.bankir.uz – Bankir.uz bank faoliyatiga oid axborot-resurslar sayti.
2. www.bankir.ru – Bankir.Ru axborot agentligi sayti.
3. www.cbu.uz – O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki sayti.
4. www.bfa.uz – O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi sayti.

5. www.uzpsb.uz – “O’zsanoatqurilishbank” OATB sayti.